

Ushbu monografiya XX asr Angliya bolalar va o'smirlar adabiyoti, mashhur yozuvchi J.K.Roulingning "Garri Potter" asarlar turkumi orqali bolalar adabiyotiga qo'shgan hissi, unda yozuvchi uslubi va uning asar rivojidagi roli masalalariga bag'ishlangan.

Monografiya Angliya adabiyoti, chet el adabiyoti, chet el bolalar adabiyoti, stilistika, adabiyotshunoslik nazariyasi kabi fanlarning tegishli o'rinlarini yoritishga yordam beradi. Shuningdek, monografiyada zikr etilgan natijalar bo'yicha ma'ruza matnlarini tayyorlashda, malakaviy bitiruv ishlari va dissertatsiyalar yozishda, sohaga doir lug'atlar yaratishda foydalanish mumkin.



AZIZA FAYZIYEVA

JOAN ROULINGNING "GARRI POTTER" ASARLARIDA STILISTIK O`ZIGA XOSLIK

MONOGRAFIYA



Buxoro Davlat universiteti "Tarjimashunoslik va lingvodidaktika" kafedrasining ingliz tili o'qituvchisi.



LAP
LAMBERT
Academic Publishing

AZIZA FAYZIYEVA

**JOAN ROULINGNING “GARRI POTTER” ASARLARIARIDA
STILISTIK O`ZIGA XOSLIK**

FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY

AZIZA FAYZIYEVA

**JOAN ROULINGNING “GARRI
POTTER” ASARLARIDA STILISTIK
O`ZIGA XOSLIK**

MONOGRAFIYA

FOR AUTHOR USE ONLY

LAP LAMBERT Academic Publishing

Imprint

Any brand names and product names mentioned in this book are subject to trademark, brand or patent protection and are trademarks or registered trademarks of their respective holders. The use of brand names, product names, common names, trade names, product descriptions etc. even without a particular marking in this work is in no way to be construed to mean that such names may be regarded as unrestricted in respect of trademark and brand protection legislation and could thus be used by anyone.

Cover image: www.ingimage.com

Publisher:

LAP LAMBERT Academic Publishing

is a trademark of

International Book Market Service Ltd., member of OmniScriptum Publishing Group

17 Meldrum Street, Beau Bassin 71504, Mauritius

Printed at: see last page

ISBN: 978-620-3-19442-5

Copyright © AZIZA FAYZIYEVA

Copyright © 2020 International Book Market Service Ltd., member of OmniScriptum Publishing Group

FOR AUTHOR USE ONLY

**O`zbekiston respublikasi Oliy va O`rta Maxsus
Ta`lim Vazirligi**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

FAYZIYEVA AZIZA ANVAROVNA

**JOAN ROULINGNING “GARRI POTTER”
ASARLARIDA STILISTIK O`ZIGA
XOSLIK**

Бухоро-2020

Ushbu monografiya XX asr Angliya bolalar va o'smirlar adabiyoti, mashhur yozuvchi J.K.Rowlingning "Garri Potter" asarlar turkumi orqali bolalar adabiyotiga qo'shgan hissasi, unda yozuvchi uslubi va uning asar rivojidadagi roli masalalariga bag'ishlangan.

Monografiya Angliya adabiyoti, chet el adabiyoti, chet el bolalar adabiyoti, stilistika, adabiyotshunoslik nazariyasi kabi fanlarning tegishli o'rinlarini yoritishga yordam beradi. Shuningdek, monografiyada zikr etilgan natijalar bo'yicha ma'ruza matnlarini tayyorlashda, malakaviy bitiruv ishlari va dissertatsiyalar yozishda, sohaga doir lug'atlar yaratishda foydalanish mumkin.

The monograph deals with the stylistic peculiarities of "Harry Potter" series by J.K.Rowling. The work analyses the history of English children's and juvenile literature, J.K.Rowling's contribution to the world literature, peculiarly to the development of fantasy genre. Moreover, it focuses on the specific features of "Harry Potter" series, specifically on the world of magic and reality, wizards, specification of protagonist and secondary characters, use of folklore elements in the novel and etc.

Mas'ul muharrir: filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

dotsent **Qosimova N.F.**

Taqrizchilar: filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ingliz adabiyoti va stilistika kafedrası dotsenti **Kasimova R.R.**

BDTI, O'zbek tili va adabiyoti kafedrası

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Abdullayeva D.A.

KIRISH

Mustaqillik yillarida davlat tili bilan bir qatorda xorijiy tillarni o'rganish ham davlat siyosati sifatida tarkib topdi. Chunki xorijiy tillarni bilgan kishi tafakkur olami, bilim doirasi, xalqaro munosabatlarni tushunish va idrok etish imkoniyatlari eshiklari ochiladi. Bu olamshumul da'vat, fikr va mulohazalar Yurtboshimizning deyarli barcha chiqishlarida, yoshlar va ilm ahli bilan uchrashuvlarida asosiy leymotiv o'laroq jaranglaydi. O'zbekiston Respublikasining qator qonunlari, Prezident qarorlari, xususan, 2012-yilning dekabr oyida "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori shu kabi buyuk g'oyalarni hayotga tatbiq etishi, yosh avlodni xorijiy til, xorijiy intellektual mulkni chuqur egallashga yo'naltirilgani bilan alohida e'tiborga molik. Bu holat xorijiy chet tillar mutaxassislari va ular ustida ilmiy izlanishlar olib borayotgan vatandoshlarimizdan bu borada chuqur tafakkur qilishni, chet tillarni o'qitish bo'yicha turli yo'nalishdagi tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Buyuk istiqlool sharofati bilan yurtimizda ijtimoiy hayotimizning barcha sohalari kabi adabiyotshunoslik sohasida ham ilgari tasavvur qilish mumkin bo'lmagan keng ko'lamdagi izlanishlar olib borilmoqda. Ammo shuni aytib o'tish kerakki, adabiyotshunoslikda o'rganilayotgan va tahlil qilinayotgan jahon adabiyoti namunalarining ko'pchiligini hali hanuz bundan bir necha o'n yillar burun chop etilgan va ko'p jihatlari tahlil etib ulgurilgan asarlar tashkil etmoqda. So'nggi yillarda keng ommasida kitobxonlikning keng targ'ib qilinishi natijasida xalqimiz orasida yangidan yangi kitoblarga, jumladan, jahon adabiyoti durdonalarini o'qishga ishtiyoq va talab oshdi. O'zbek bolalari va o'smirlari orasida avvaliga film sifatida nom qozongan "Garri Potter" asarlar turkumi ham tarjima qilinib, keng ommaga havola qilindi. Biroq asarning barcha yeti qismi hali to'liq tarjima qilinmagan. Tarjima qilingan qismlari esa hanuz adabiyotshunoslikda to'liq tadqiq qilib ulgurilmagan deya olamiz. Shuning barobarida, asarning jahonga tanilishida muallifning o'ziga xos uslubini

o`rganish, tadqiq qilish monografiyada ko`tarilgan mavzuning dolzarbligini o`zida aks ettiradi.

Tadqiqot manbai qilib Joan Roulingning “Garri Potter” asarlar turkumi olindi. Mazkur asarda tasvirlangan obrazlar, joylar va qahramonlar ismlari uning tadqiq predmetini tashkil etadi.

Ushbu tadqiqot mavzusi maqsadi zamonaviy ingliz bolalar yozuvchisi Joan Roulingning “Garri Potter” asaridagi stilistik o`ziga xoslikni o`rganish. Yuqoridagi maqsaddan kelib chiqqan holda, tadqiqotning quyidagi vazifalari belgilandi:

- Angliya bolalar adabiyotining tarixi va rivojlanish bosqichlarini o`rganish;
- Yozuvchi Joan Roulingning hayoti va adabiy faoliyati, shuningdek, uning “Garri Potter” asarining yaratilish tarixi haqida ma’lumot berish;
- “Garri Potter” asarida zamon va makonning ifodalanishini ochib berish;
- Asarda tasvirlangan sehrarlar obrazlarini tahlil qilish;
- Joan Rouling tomonidan “Garri Potter” asarida qo`llangan antonomasiyalarni tahlil qilish orqali yozuvchi mahoratini o`rganish;
- Yozuvchi Roulingning asarda xalq og`zaki ijodiga yondashuvini tahlil qilish.

Ushbu monografiyada quyidagilar xususida so`z yuritiladi:

1. Bolalar adabiyoti, xususan, Angliya bolalar adabiyotining kattalar adabiyotidan mustaqil holda ajralib chiqish davri va hozirgi davrgacha bosib o`tgan taraqqiyot bosqichlari;
2. Roulingning “Garri Potter” asarida fentezi janri xususiyatlarini hisobga olgan holda yaratgan zamon va makon tasvirining o`ziga xosligi;
3. “Garri Potter” asarida tasvirlangan sehrarlar obrazlarining o`ziga xos xususiyatlari, muallifning obraz yaratishdagi va ularning xarakter xususiyatlari rivojlanishida o`ziga xos uslubi;
4. Antonomasiya qahramonlar ismlari orqali ular tabiatini ko`rsatish san’ati bo`lib, buni hamma yozuvchilar ijodida ham kuzatavermaymiz. Antonomasiya yozuvchi uslubining o`ziga xosligini ko`rsatuvchi unsurlardan biridir.

5. Fentezi janridagi boshqa asarlar singari “Garri Potter”da ham xalq og`zaki ijodi namunalari qo`llanilishi va bunda muallifning o`ziga xos yondashuvi.

Soha mutaxassislarining, jumladan, Konni Enn Kerk, Endryu Bleyk, *Devid Kolbert*, *Don D`ammassa*, I.Bobulova va B.Jamilovalarning mavzuga doir fundamental asarlari ushbu tadqiqot ishining metodologik asosini hosil qiladi.

Biz tadqiqotimizning mavzusini yoritishda qiyosiy va stilistik tahlil kabi metodlaridan foydalandik.

Ushbu tadqiqot davomida qo`lga kiritilgan natija va xulosalar Angliya adabiyoti, chet el adabiyoti, chet el bolalar adabiyoti, stilistika, adabiyotshunoslik nazariyasi kabi fanlarning tegishli o`rinlarini yoritishga yordam beradi. Shuningdek, bu natija va xulosalardan yuqorida zikr etilgan natijalar bo`yicha ma`ruza matnlarini tayyorlashda, malakaviy bitiruv ishlari va dissertatsiyalar yozishda, sohaga doir lug`atlar yaratishda bimalol foydalanish mumkin.

O`zbek adabiyotshunosligida Angliya bolalar adabiyotiga doir asarlarda Angliya bolalar adabiyotining tarixi, uning rivojlanish hamda taraqqiyot bosqichlari va yo`nalishlari, shuningdek, bolalar yozuvchilari haqida ma`lumotlar berilgan bo`lishiga qaramay, zamonaviy bolalar yozuvchilari va ularning asarlariga oid tadqiqotlar, ilmiy ishlar kamchilikni tashkil etib kelmoqda. Xususan, Joan Roulingning “Garri Potter” asari ham ko`p xalqlar adabiyotida tadqiq qilingani bilan, bu kitob aynan o`zbek adabiyotshunosligi uchun hali to`liq tadqiq etib ulgurilmagan asar bo`lib qolmoqda. Bu holat biz tanlagan mavzuning yangiligidan dalolat beradi.

I BOB. XX ASR ANGLIYA ADABIYOTIDA BOLALAR VA O`SMIRLAR

MAVZUSI

1.1 Angliya bolalar adabiyoti tarixi va taraqqiyoti

Har qanday millatning, mamlakatning kelajagi uning yosh vorislari va, albatta, ularning tafakkuri qay darajada rivojlanganligiga bog`liq. Insonlarni fikrlashga, tafakkur qilishga o`rgatadigan asosiy vosita bo`lmish adabiyot tezkor axborot va yuqori texnologiyalar asri hisoblangan XXI asrga kelib ham o`z o`rnini yo`qotgan emas.

Qaysi yoshdagi kitobxonlar doirasiga mo`ljallanganligiga qarab adabiyotni ikkiga – kattalar va bolalar adabiyotiga bo`lish mumkin. Umumiy adabiyotning alohida qismi sifatida bolalar adabiyoti ham so`z san`ati hisoblanadi.

Bolalar adabiyoti — bolalar va o`smirlar uchun yaratilgan badiiy, ilmiy, ilmiy-ommabop va publitsistik asarlar majmui. Bularning asosiy qismini badiiy asarlar tashkil etadi. Jahon xalqlari badiiy adabiyoti tez aytish, topishmoq, o`yin qo`shiqlari, rivoyat, afsona, ertak, maqol, masal va doston singari aksariyat qismi bolalarga mo`ljallab yaratilgan og`zaki ijod namunalaridan boshlanadi. Bolalar va o`smirlar adabiyoti namunalarini quyidagi guruhlariga bo`lish mumkin:

- 1) bolalar xalq og`zaki ijodi namunalari;
- 2) bevosita bolalarga mo`ljallab yaratilgan asarlar;
- 3)aslida bolalarga mo`ljallanmagan bo`lsa-da, keyinchalik bolalar adabiyotiga o`tib qolgan asarlar.

Bolalar adabiyotining o`ziga xos xususiyati — o`zgaruvchan hodisa bo`lib, u kitobxon yoshi, tarixiy davr va ijtimoiy muhit bilan bevosita bog`liq. Kitobxon yoshini hisobga olish bolalar adabiyotining eng asosiy xususiyatlaridandir. Masalan, maktabgacha yoshdagi bolalarda bu ko`rgazmalilik, ezgulik va yovuzlik kuchlarining oddiy ko`rinishdagi

ziddiyatlariga asoslangan bo'lsa, o'smirlar uchun yaratilgan adabiyotda murakkab hayotdagi murakkab kishilarning ruhiyati ochila boshlaydi.¹

Bolalar adabiyotining yana bir xususiyati uning harakatga boyligidir. Bundan bolalar adabiyotida syujetga bo'lgan talab ham kelib chiqadi. U voqealarning tezkor, qiziqarli, fantaziyaga, yumorga boy ravishda yechilishini talab qiladi. Bolalar uzundan-uzun tasvirlar va izohlardan ko'ra qisqa va tezkor syujetli hikoyalarni afzal ko'rishadi. "Endi nima sodir bo'lar ekan?" degan savol har qanday kitobxon bolani eng ko'p qiziqtiradigan savollardan biridir.

Bolalar uchun yaratiladigan asar uchun yozuvchilar bolalarning nuqtai nazari, ularning psixologiyasidan kelib chiqib mavzu tanlaydilar. Shuningdek, asar tili bolalarning kundalik nutqiga asoslanib, grammatik jihatdan sodda va tushunarli bo'ladi. Agar asarda kattalar nutqi qo'llanilsa, bu bolalarni charchatadi va syujetning qiziqarli bo'lishiga qaramay, bolalar tezda zerikib qolishadi.

Bolalar adabiyotining xususiyatlaridan yana biri asar qahramonlari yoshidir. Kitobxon bolalarni katta yoshli qahramon-u uning ko'rsatmalaridan ko'ra, o'zlari bilan tengdosh bolalarning sarguzashtlari qiziqtiradi.²

Bolalar adabiyotida badiiylilik bilan bir qatorda ma'rifiylilik ham yetakchi o'rin tutadi. Chunki bolalar adabiyoti namunalari yoshlarni insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashga ham xizmat qiladi. Barcha davrlar bolalar adabiyotining taraqqiyot tamoyillari, avvalo, ma'rifiylilik va tarbiyaviylikda aks etadi. Bolalar adabiyotining shakllanishi deyarli barcha xalqlarda asosan ma'rifatparvarlik va maktab-maorif tizimi islohotlari bilan chambarchas bog'liq. Uning asosiy maqsadi bolalarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga, ularning estetik ongini o'stirish va dunyoqarashini shakllantirishdir.³

Bolalar adabiyoti tushunchasi yaqin o'tmishda vujudga kelgan hodisa bo'lib, uning tarixi va taraqqiyoti bolalik konsepsiyasi va bolalarning

¹O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2002. 1-jild. 740-742-betlar.

²Bobulová I., Pokrivčáková S., Preložníková E., Přibyllová I. Children's and Juvenile Literature / (Written in English). – Nitra : Univerzita Konštantína Filozofa, 2003. p.10.

³Детская литература // Под ред. Е.Зубарева. – М.: Просвещение, 1989. с-7.

jamiyatdagi o`rni bilan bog`liq. Kattalarning bolalarga munosabati hamisha bolalar adabiyotiga ta`sir qilib kelgan. Agar bolalar adabiyotiga “mavzu yoki muallifni emas, balki kitobxonlar auditoriyasini anglatuvchi” adabiyot deb qaraydigan bo`lsak, u holda bolalar adabiyoti XVIII asrda vujudga kelgan desak mubolag`a bo`lmaydi.

XVIII asrga qadar aynan bolalar uchun asarlar yozilmagan bo`lsa-da, xalq og`zaki ijodida yaratilgan ertaklar, qo`shiqlar, she`r va tez aytishlar bolalar auditoriyasiga ham mo`ljallangan edi. Fransuz tarixchisi Filipp Ares o`zining 1962-yilda chop etilgan “Centuries of childhood” (“Bolalik asrlari”) asarida “bolalik” tushunchasining yangicha talqini hozirgi kunlarda vujudga kelgani, yaqin o`tmishgacha esa bolalarga munosabat kattalarnikidan deyarli farq qilmagani haqida yozadi. Fikrining dalili sifatida XVIII asrga qadar Venerebl Bid va Elfrik Eynshem kabi ruhoniylarning ta`lim-tarbiya ruhidagi yozuvlaridan boshqa aynan bolalarga mo`ljallab deyarli birorta asar yozilmaganini ko`rsatadi.¹ Ammo shuni aytib o`tish joizki, diniy ta`lim va odob-axloq qoidalariga bag`ishlangan boshqa asarlar o`rta asrlarda boy oilalar bolalari o`rtasida keng tarqalgan edi.

Bolalar adabiyoti va tarixi sohasida bir talay ko`zga ko`rinarli ishlar olib borgan olim Harvey Darton Angliya bolalar adabiyoti tarixi xususida shunday deydi:

“Qo`pol qilib aytadigan bo`lsak, XVII asrgacha Angliyada bolalar uchun kitoblar mavjud bo`lmagan bo`lsa, XVII asrning o`zida bunday kitoblar soni sanoqli edi. O`quv kitoblari, shuningdek, xulq-atvor qoidalariga bag`ishlangan nasihat kitoblari bir talay bo`lsa ham, ularning hech biri bolalarda kitob o`qishdan rohat hissini uyg`otmas, aksincha, ularda oldilarida turgan vazifa va xato qilishdan qo`rqish hissinigina keltirib chiqarardi. Faqat XVIII asr yarmiga kelibgina bolalar kitoblari ingliz adabiyotining ko`zga ko`rinmas qatlamidan

¹ Shavit, Zohar. Poetics of Children's Literature. University of Georgia Press, 2009. p-5.

alohida, mustaqil adabiyot sifatida ajralib chiqdi”.¹ Darton o`zining bolalar adabiyotiga bergan izohida diniy va ta`limga oid asarlarni bolalar adabiyoti safiga kiritmaydi.

Britaniyada hali bolalar kitoblari nashri paydo bo`lmasdan bir necha asr oldin, ertaklar va afsonalar tasvirlangan rasmlı broshuralar (chapbook) bolalarning sevimli kitoblari sanalardi. Rasmlı broshuralar XVIII asrga qadar bolalar tomonidan eng ko`p sotib olingan va o`qilgan kitob bo`lib keldi. Ularning o`ziga xos bir necha afzallik tomonlari mavjud bo`lib, birinchidan, bunday broshuralar hamyonbop, ya`ni arzonligi sababli ko`pgina oilalar bunday kitoblarni sotib olishga qurlari yetar edi; ikkinchidan, voqealarning rasmlar orqali tasvirlanishi hech bir bolani befarq qoldirmay, aksincha, ularning qiziqishini oshirgan va nihoyat, uchinchidan, broshuralarda asosan xalq og`zaki ijodi namunasi bo`lgan ertak va afsonalar chop etilganligi sababli, asrlar davomida og`izdan og`izga, avloddan avlodga o`tib kelgan bunday ijod namunalarining yo`qolib ketmay, xalq orasida kengroq tarqalishiga xizmat qilgan.

XVI asrda qirolicha Yelizavetaning boshqaruvi davrida bosma stanoklarning paydo bo`lishi bilan Angliyada bolalarga bag`ishlangan kitoblar chiqqa boshladi. Ularning asosiy vazifasi bolani jamiyatda o`zini yaxshi va munosib tutishga o`rgatish bo`lib, bu kitoblarning aksariyati lotin tilidan tarjima qilingan edi. “Bola tabiatan tarbiyasi buzilgan...”, deb hisoblar edi protestant cherkovi vakillari. Aynan shu ta`kid XVI - XVIII asrlarda Angliya bolalar adabiyotining oqimlarini aniqlab berdi. Quruq didaktizm va pand-nasihat o`sha davr bolalar adabiyotini qamrab olgan edi. 1702-yilda bolalar uchun din ishlari vaziri Tomas Uaytning “Kichik bolalar uchun kichik kitobcha” deya nomlangan asari bosmadan chiqadi va bunda muallif “bema`ni kitoblarni hamda balladalarini bolalarga o`qib bermaslikni, balki “Injil”ni o`rgatishlarini” tavsiya

¹Darton, Harvey. *Children's Books in England: Five Centuries of Social Life*. Cambridge University Press, 2011, p-1.

qiladi. Ko'p kitoblar maslahatlar to'plami – ko'p hollarda yaxshi otalarning o'zlarining itoatkor bolalariga pand-nasihatlaridan iborat bo'lgan. Ammo XVIII asr oxirlarida Angliya adabiyotida yetakchilik qilgan romantizm insonning ruhiy rivojlanishdagi o'z-o'zini anglash davri bolalikda kashf etilishini ochib berdi. Romantiklar asarlarida bolalik insonning o'zidagi bebaho ichki olam sifatida, shuningdek, teran mohiyati va ajoyibotlari bilan kattalarni ham o'ziga rom etuvchi davr tarzida talqin qilinadi. Katta yoshlik esa xuddi eng samimiy va bolalarcha beg'uborlik tark etilgan davr sifatida yoritiladi. Shuni tan olish kerakki, romantizm nafaqat bolalikni kashf etdi, balki uni eng sof mukammallik namunasi hamda mehr-shafqat timsoli sifatida insonga me'ros qilib qoldirdi. Natijada, Angliyada bolalar adabiyotiga munosabat sekin-astalik bilan o'zgara boshladi.¹

XVIII asrga kelib Britaniyada bolalar soni oshishi natijasida ular uchun kitob chop etish yangi tijoriy tus oldi. O'quv kitoblari bilan birga bolalarni qiziqtiradigan yangi turdagi kitoblarga ham ehtiyoj tug'ila boshladi. Aynan kichik yoshli kitobxonlar doirasiga mo'ljallangan qiziqarli kitoblarning yo'qligi sabab, bolalar kattalar uchun yozilgan asarlarni o'qishga majbur edilar. Daniel Defoning 1719-yilda chop etilgan "Robinzon Kruzoning sarguzashtlari" va Jonatan Sviftning 1726-yilda chop etilgan "Gulliverning sayohatlari" asarlari kattalardan ko'ra sarguzashtga ishtiyoqmand bolalar orasida katta muvaffaqiyatga erishdi.²

Angliyada bolalar uchun kitob nashr qilish ilk bor 1744-yilda Jon Nyuberining "A little pretty pocket-book" ("Ajoyib kichkina cho'ntak-kitob") nomli kitobi nashri bilan yangi tus oldi. Kitob bosh sahifasida ishlatilgan "Delectando Momenus : Instruction with Delight" ("Shodlik ila ta'lim") shiori kitobning ingliz faylasufi Jon Lokkning "Ta'limga oid ba'zi mulohazalar" essesi ta'sirida yozilganidan dalolat beradi. Jon Lokk unda "Foydali va qiziqarli – shu ikki xususiyatni birlashtirishga muvaffaq bo'lingandagina o'quvchiga ham

¹Будур Н.В., Иванова Э.И. и др.Зарубежная детская литература. – М., 2000. с-5.

²Hunt, Peter. International Companion Encyclopedia of Children's Literature – Vol.1. – London: Routledge, 2004. p.242-243.

ta'lim, ham zavq berishga erishish mumkin. O'qishga ilhomlantirish uchun bolaga qobiliyatiga mos, oson va qiziqarli kitob berish kerak" degan fikrlarni ilgari surgan. Shuningdek, bolalar ertakdan ko'ra masal o'qishsa, maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki har qanday masalda qissadan hissa borligi sabab u tarbiyaviy maqsadni ham amalga oshirishga yordam berishini aytadi. Ayniqsa, Ezop masallarini o'qishni maslahat berib, agar masallar rasmlar bilan bezatilgan bo'lsa, bolalarni yanada qiziqtirishini yozadi. Nyuberi Lokk nazariyasini amalda qo'llab, asarni rasimli alifbo, tanlangan maqollar va rasm bilan bezatilgan bir nechta Ezop masallaridan iborat to'plam shaklida chop ettiradi.¹ Tavnsend Nyuberigacha chop etilgan barcha kitoblar va nashrlarni "bolalar adabiyotining tarixgacha bo'lgan davri" deb ataydi. Bunday kitoblar sirasiga xalq ertaklari va Robin Gud haqidagi afsonalarni kiritish mumkin, ular garchi bolalarga mo'ljallanmagan bo'lsa-da, yosh kitobxonlar tomonidan sevib o'qilgan. Ammo Nyuberining kitobi Angliyada aynan bolalar uchun kitob chop etadigan nashriyotlarning paydo bo'lishiga va bolalar kitoblariga yangicha qiziqishning uyg'onishiga turtki bo'ldi.

Bolalar adabiyoti rivojlanib borgani sari uning sof badiiyat unsurlarini egallashga intilishi va umumadabiyot taraqqiyot tamoyillari bilan hamkorligi ham ko'zga tashlanadi. Buni ingliz bolalar adabiyotining oltin davri hisoblangan Viktoriya davri adabiyoti misolida ko'rishimiz mumkin. XIX asr o'rtalariga kelib axloqiy-tarbiyaviy ruhdagi kitoblar o'rnini hajviyaga boy, qahramoni bolalar bo'lgan va ularning xayolotiga asoslangan asarlar egalladi. Bolalar adabiyoti janr va mavzu jihatdan o'zgardi. Shuni hisobga olgan holda, Lyuis Roberts Viktoriya davri bolalar adabiyotini quyidagi kategoriyalarga bo'ladi:

- 1) ertak va adabiy ertak janridagi asarlar;
- 2) tarbiyaviy-axloqiy va diniy asarlar;
- 3) maktab hayotidan hikoya qiluvchi va sarguzasht asarlar;

¹Fass, Paule S.ed. Encyclopedia of Children and Childhood in History and Society. Volume 1 (A-E). New York and London: Macmillan Reference USA, 2004. p-179.

4) uy va oila hayotidan hikoya qiluvchi asarlar.¹

Viktoriya davrida xalq ertaklarning boy merosiga ega sanalib, bu ertaklar o`rta asrlardan buyon avloddan avlodga o`tib kelgan. Shunga qaramay, 1823-yilda Angliyada aka-uka Grimm ertaklarining tarjima qilinib, chop etilishi ertaklarning, ayniqsa, bolalar ichida ommalashuviga sabab bo`ldi. Qadimdan shakllanib kelgan xalq og`zaki ijodi mahsuli bo`lgan ertak endi adabiy ertak ko`rinishida yozuvchilar tomonidan aynan bolalarga atab yozila boshlandi. Ertaklarning yanada ommalashuviga sabab, ularda bolalarni qiziqtiradigan sarguzashtlar bilan bir qatorda, ularning ongiga sezdirmay kirib boruvchi yaxshilik g`oyalari singdirilganidadir. Xalqimizda “Ertaklar yaxshilikka yetaklar” degan maqol bor. Mashhur ingliz adibi, bolalarga atab bir necha asarlar yozgan Charlz Dikkins ham aynan ertaklar bolalarda yaxshi fazilatlarni shakllantirishi xususida quyidagilarni yozgan:

“Uning (ertakning) ko`rinmas yo`llari orqali bizgacha yetib kelgan rahm va shafqat tuyg`ularining hisobiga yetish qiyin. Sabr, xushmuomalalik, kambag`allar va qariyalarga nisbatan mehr, hayvonlarga yaxshi munosabat, tabiatni sevis, jaholat va shafqatsizlikka nisbatan nafrat va shunga o`xshash ko`pgina yashi xislatlar bolaning yuragiga ilk bor shu kuchli yordamchi ta`sirida jo bo`ladi.”²

Jon Raskinning “The king of golden river” (“Oltin daryo qiroli”, 1850) asari ingliz adabiyotida yaratilgan birinchi adabiy ertak hisoblanadi. Tez orada bu janr yozuvchilar o`rtasida ommaviylashib, ular ham Raskinning an`analarini davom ettirishdi. Jorj Krukshenkning “Fairy library” (“Sehrli kutubxona”, 1853-1854), Uilyam Tekkereyning “The rose and the ring” (“Atirgul va uzuk”, 1855), Frensis Braunning “Granny’s wonderful chair” (“Buvining g`aroyib kursisi”, 1857), Oskar Uayldning “Baxtli shaxzoda” (1888), Jozef Jakobning “English fairytales” (“Ingliz ertaklari”, 1890) va bu kabi boshqa asarlar o`sha davrda adabiy ertak janrining rivojlanganidan dalolat beradi.

¹ A Companion to the Victorian novel.//ed.Brantlinger,Patrick and Thesing,William B. Blackwell Publishing Ltd., 2002. p. 357.

² The same source, p.358.

Shu bilan birga, butun dunyo bolalari hozirga qadar sevib o`qiydigan, bir necha bor ekranlashtirilgan “Alisa mo`jizalar mamlakatida” asari ham shu davrda (1865) yaratildi. Lyuis Kerrollning “Alisa”si fentezi janrining bolalar adabiyotiga kirib kelishini hamda Angliyada bolalar adabiyotining oltin davrini boshlab berdi. “Alisa mo`jizalar mamlakatida” asari bolalar adabiyotining o`tmishi va bugunini farqlovchi burilish nuqtasi bo`lib, unda sof fantaziya va tasavvur bolalar asarlaridan ortiqcha didaktik unsurlarni surib chiqardi va natijada bolalar adabiyoti kattalar adabiyoti singari mukammallikka erishib, adabiy ahamiyat kasb eta boshladi.

XIX asrning 60-yillarida fentezi janrida yozilgan yana bir mashhur asar Charlz Kingslining “The water-babies, a fairytale for land baby” (“Suv bolalari, yer bolasi uchun ertaklar”) asari o`z davrida Angliyada juda mashhur bo`lgan va hozirda Britaniya bolalar adabiyotining mumtoz asalaridan biri hisoblanadi.

Tomaz Hyuzning 1857-yilda chop etilgan “Tom Brown’s school days” (“Tom Braunning o`quvchilik kunlari”) asari ingliz bolalar adabiyotida o`quvchilar hayotiga oid yangi yo`nalishning asosi bo`ldi. Hyuz o`z asarida maktab sporti va o`qituvchi-o`quvchi munosabatlarini tasvirlash orqali insonning hayotda o`z o`rnini topishida axloqiy hamda jamiyat oldidagi burchlarini anglashi muhimligini ko`rsatadi. Hyuzgacha maktab hayotidan hikoya qiluvchi bir necha asarlar yaratilgan bo`lsa-da, ularning hech biri “Tom Braun” erishgan muvaffaqiyatga erisha olmadi.¹

Viktoriya davri bolalar adabiyotining o`ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, maktab va sarguzasht asarlarining ko`pchiligida Britaniya imperial tuzumini bolalar ongiga singdirishga urinishlar mavjud edi. Shuningdek, xuddi mana shu davrda bolalar adabiyotida ham kitobxonlar o`rtasida bo`linish vujudga keldi. Maktab hayotidan hikoya qiluvchi va sarguzasht asarlar ko`proq o`g`il bolalar auditoriyasiga qaratilgan bo`lsa, uy va oila hayotidan hikoya qiluvchi asarlar asosan qiz bolalarga mo`ljallab yozila boshlandi, bunday

¹A Companion to the Victorian novel./ed.Brantlinger,Patrick and Thesing,William B. Blackwell Publishing Ltd., 2002. p.364.

asarlarning mualliflarini ham ayol yozuvchilar tashkil etardi. To`g`ri, qiz bolalar boshqa janrdagi asarlarni ham maroq bilan o`qishgan bo`lishsa-da, ular o`qiydigan kitoblarning ko`pchiligini aynan ularga atab yozilgan, oila va unda sodir bo`ladigan turli voqealar xususidagi asarlar tashkil etardi.

Realistik tamoyillarning rivojlanishi, ruhiyatshunoslikning chuqurlashishi bilan bolalar adabiyotida keng qamrovli, ko`p qirrali bolalik obrazi mustahkamlandi. Bunda yozuvchilar insoniyat rivojlanishining ibtdolarini, yosh inson xarakterining tub-tubiga yetib, bola ichki dunyosining murakkabliklariga asta-sekinlik bilan kirib borib, uning mutanosiblikda va ziddiyatlarda, hayotning yorqin hamda qorong`u ham qayg`uli onlarining kurashlarida shaxs sifatida shakllanishini ochib berishdi.

Ingliz va jahon adabiyoti tanqidiy realizmining eng yetuk namoyondalaridan biri bo`lgan Charlz Dikkensning “Oliver Tvistning sarguzashtlari” asari 1837-yilda chop etilib, nafaqat bolalar, balki katta yoshli kitobxonlarning ham qalbidan joy oldi. Asarda Oliver va u kabi yetim-daydi va qashshoqlikdan tinkasi qurigan bolalar hayoti tasvirlangan. Yozuvchi Oliver timsoli orqali tashlandiq bolalarning xatarli, achinarli va dahshatli hayotini, yashash zaruriyati tufayli bilib-bilmay boshi berk ko`chaga kirib qolishlarini ko`rsatib beradi.¹ Roman bola obrazi bosh qahramon bo`lgan birinchi ingliz asari hisoblanadi. Dikkensning bolalar hayotini real ranglarda ochib berishi, bolalarning qandaydir xayoliy sarguzashtlarga emas, balki haqiqiy hayotning qiyinchiliklari-yu sinovlariga duch kelishlari, hayotning bunday o`nqir-cho`nqir yo`llarida o`zligini, hayotiy qarashlarini yo`qotmagan bola obrazi ingliz bolalar adabiyotida realistik qahramonlar yaratila boshlanganidan dalolat beradi.

1880-yillarga kelib bolalar adabiyotida sarguzasht janri kitobxon bolalar tomonidan eng ko`p o`qiladigan janrga aylanib, bu janrdagi asarlar kitobxon bolalar orasida ko`proq muvaffaqiyatga erishdi. Bunday turdagi asarlarning ko`pchiligi Daniel Defoning “Robinson Kruzo” romanidan ruhlanib yozilgan edi. Luis Stivenzonning “Xazinalar oroli” (1883) va “Merosxo`r” (1886),

¹Boynazarov Fayzulla. Jahon adabiyoti. T.: “Musiqqa” nashriyoti, 2006.76-bet.

Redyard Kiplingning “O'rmon kitobi” (1894-1895) va “Kim” (1901) asarlari ingliz bolalarining sevimli sarguzasht kitoblariga aylandi.

XX asr o'zining inqiloblari, urushlari, keskin ijtimoiy muammolari, o'tkir ziddiyatlari, siyosiy qarashlari bilan Britaniya bolalar adabiyotini ham o'zgartirib yubordi. Dunyoning dahshatlari kichik kitobxon asari sahifalariga kirib bordi. Ularning qahramonlari - ijtimoiy jonzotlar, ular o'z holicha insonga nisbatan qilingan vahshiylikka qarshi borishadi, o'zlarining do'stlikka, muhabbatga bo'lgan huquqlarini talab qilishadi hamda kattalarni ularni tushunishlariga chaqirishadi. Zamon muammolari nafaqat realistik asarlarga, balki ertaklarga ham kirib bordi. Ular janriy xususiyatlaridan ozgina chekingan bo'lsalar-da, hamon yaxshilik yovuzlik ustidan g'alaba qozonishiga umid bog'lashadi va shu yo'lda tinimsiz ma'naviy kurashlar olib borishadi.

Britaniyada bolalar adabiyotining oltin davri birinchi jahon urushi arafasida o'z nihoyasiga yetdi va ikki jahon urushi yillarida adabiyot rivoji ma'lum ma'noda sekinlashdi. Shunday bo'lishiga qaramay, adiblar bolalar uchun kitob yozishdan to'xtashmadi. 1926-yilda A.A.Milnning “Vinni Puh” va 1937-yilda J.R.R.Tolkinning “Hobbit” asarlari dunyo yuzini ko'rdi. Angliyadagi *Puffin Books* nashriyoti past bahoda kitoblar chiqarib, ikkinchi jahon urushi yillarida ingliz bolalarining kitob dunyosidan uzilib qolmasliklariga o'z hissasini qo'shdi.

XX asrning 50-yillariga kelib, urush ta'siridan o'zini biroz bo'lsa ham o'nglab olgan Britaniyada bolalar uchun kitob nashri yana keng yo'lga qo'yilib, bir necha mashhur asarlar dunyo yuzini ko'rdi. Ularga Klayv Steypls Lyuisning “The chronicles of Narnia” (“Narniya saltanati”, 1950-yillar), Dodi Smitning “The hundred and one dalmatians” (“Bir yuz bir dalmatin”, 1956), Roald Dalning “James and the giant peach” (“Jeyms va bahaybat shaftoli”, 1961) hamda “Charlie and the chocolate factory” (“Charli va shokolad fabrikasi”, 1964) kabi asarlarni misol qilib keltirish mumkin. Xuddi mana shu asarlar asosida keyinchalik bolalar uchun filmlar ham suratga olindi.

XX asr oxirida, ya'ni 1997-yilda Joan Rouling o'zining “Garri Potter va falsafa toshi” asarini chop ettirdi va tez orada bir necha tillarga ham tarjima qilinib, nafaqat ingliz balki, butun dunyo bolalarining sevimli kitoblari qatoridan joy oldi. Asarning muvaffaqiyati kitoblar hali hanuz ingliz bolalarning eng yaqin do'stlari ekanligidan darak beradi.

Shunday qilib, Angliya bolalar adabiyotining XVII-XVIII asrdan to hozirgi davrgacha bo'lgan tarixi o'rganilganda, uning hech qachon bir nuqtada to'xtab qolmay, doimiy taraqqiy qilganiga guvoh bo'lish mumkin.

1.2. Ingliz bolalar adabiyotining jahon sahnasiga chiqishida

J.K.Roulingning qo'shgan hissasi

XX asr Angliya bolalar adabiyotiga razm soladigan bo'lsak, unda fentezi janri boshqa janrlardan ko'ra sezilarli darajada ustunlik qilganini ko'rishimiz mumkin. Fentezi (inglizcha “fantasy” fantaziya) – fantastik adabiyot janri bo'lib, janr talablariga ko'ra voqealar biz yashaydigan “real” dunyodan butunlay farq qiladigan sehrli dunyoda sodir bo'ladi. Bu “ikkilamchi” dunyoning o'z qonun-qoidalariga mavjud bo'lib, ular oddiy mantiq va tabiat qonunlariga to'g'ri kelmaydi. Uning ilmiy fantastikadan farqi shundaki, fentezi janrida voqealar sodir bo'ladigan dunyoning qonun-qoidalarini ilmiy jihatdan tushuntirishga urinish mavjud emas. Vaqtlar almashinuvi hamda turli xayoliy qiroliklar fentezi dunyosida tez-tez uchrab turadiga hodisa. Bu xayoliy dunyoga qahramonlar turli yo'llar orqali o'tishlari mumkin: uxlab qolib yoki tush ko'rayotib, quyon uyasiga tushib ketib (“Alisa mo'jizalar mamlakatida”), shkaf orqali (“Narniya saltanati”-“The chronicles of Narnia”), loviya poyasiga tirmashib (“Jek va loviya poyasi”) yoki tornado quyuniga tushib qolib va hkz. Shuningdek, bu g'ayrioddiy dunyo oddiy dunyoning ko'z ilg'amas, yashirin qismi bo'lib, unda sehrli va g'ayritabiiy kuchlar (kelajakni bashorat qilish, hayvonlar va o'liklar bilan suhbatlashish, inson qiyofasidan boshqa mavjudot qiyofasiga o'ta olish va hkz.) mavjudligi bilan ham ajralib turishi mumkin. Janrning xususiyatlaridan

yana biri fantastik dunyoda g`alati jonzotlar ham hayot kechirishadi (so`zlovchi buyumlar va hayvonlar, afsonaviy jonzotlar, ritsarlar, sehrGAR-u afsungarlar, bo`ri-odamlar, elflar, arvoHlar, ajdarholar va shunga o`xshash boshqa mavjudotlar).

Fentezi adabiyotining uzoq tarixi davomida uning ko`plab ichki janrlari shakllandi, uning bolalar adabiyotiga xos asosiy subjanrlari esa quyidagilar:

- 1) hayvonlar va o`yinchoqlar fentezisi;
- 2) g`alati va g`ayritabiiy kuchga ega qahramonlar fentezisi;
- 3) epik fentezi;
- 4) kulgili (komik) fentezi;
- 5) gotik (qo`rqinchli, qora) fentezi.

Adabiyotning bu janri boshqa janrlarga o`xshab, kundalik hayotning tashvishlaridan qutulish va hayotning turli talqinlarini qidirishda yaxshi vosita sanaladi. Ba`zi fentezi asarlari aql bovar qilmas sarguzashtlarning shunchaki ketma-ketligidan iborat bo`lsa, ba`zilari hayotning eng chuqur falsafiy tomonlarini ham ko`rsatib beradi. Piers aytganidek: “Fentezi uni yozadigan va o`qiydiganlarga tarixdan olingan ba`zi eng kuchli g`oyalar, qahramonlar va voqealarni boshqa kontekstga qo`yib, alohida elementlari o`zgartirilganda uni qanday fosh qilishlarini ko`rish imkonini beradi”.<sup>1</sup> Fentezi janrining sifatli namunalari bolalarning tasavvuri va ijodkorligini oshirishda eng yaxshi mashg`ulotlardan biri sanaladi. Shuningdek, ular jiddiy axloqiy fazilatlarini ham o`zida mujassam etadi: ezgulik va yovuzlik o`rtasidagi kurash, do`stlarga sadoqat, qaror qabul qilish mas`uliyati, shaxsiy burch va vazifalar fentezi asarlarida eng ko`p uchraydigan mavzular bo`lib kelgan.

Fentezi janri uzoq tarixga ega bo`lib, uning ildizlari grek-rim mifologiyasiga borib taqaladi. Xususan, Homerning “Odissey” epopeyasida ham ushbu janrning ilk xususiyatlari namoyon bo`ladi. Qadimgi ingliz epik poemasi “Beovulf”, o`rta asr ritsarlik afsonalaridan biri bo`lgan “Qirol Artur haqidagi

¹Bobulová I., Pokrivčáková S., Preložníková E., Přibyllová I. Children's and Juvenile Literature / (Written in English). Nitra : Univerzita Konštantína Filozofa, 2003. p.100.

afsona”, Shekspirning “Bo`ron” tragikomediyasi, Jonatan Sviftning “Gulliverning sayohatlari”, Lyuis Kerrolning “Alisa mo`jizalar mamlakatida” asarlari fentezi janri xususiyatlari Britaniya adabiyotida ham asrlar davomida shakllanib kelganidan dalolat beradi.¹

Fantastik adabiyotning mustaqil janri sifatida fentezi XIX asrda shotlandiyalik yozuvchi Jorj Makdonald ijodi bilan ajralib chiqa boshladi. Uning kelt motivlari asosida yozgan “Phantastes: Faery Romances” asarida yosh yigitning ertak mamlakatga borib, u yerda turli sarguzashtlarni boshidan kechirib, uyga qaytishi haqida hikoya qilinadi. Janrning keyingi rivojiga Uilyam Morris o`zining antik va o`rta asr mavzulari yoritilgan epik poema va romanlari bilan o`z hissasini qo`shdi. Morris tomonidan yaratilgan shriftlar to`plami va sahifalarni bezash usuli fentezi asarlar nashriyotida o`ziga xos madaniyatni vujudga keltirdi. XX asrda Jorj Makdonald va Morris boshlab bergan an`anani Edvard Danseni davom ettirdi. Uning “The king of Elfland’s daughter” (“Elflar qiroli qizi”) romani qadimgi kelt afsonasi asosida yaratilgan bo`lib, unda yerda yashovchi qiroi va qorong`u elflar mamlakati malikasining muhabbati haqida hikoya qilinadi.

20-yillarga kelib fantastik reallikni ko`rsatishda til vositalarining roli oshdi. Lingvist va qadimgi tillar o`qituvchisi Erik Edison o`zining “The Worm Ourborous” (“Uroboros chuvalchangi”, 1922) asarida qadimgi ingliz tili uslubini qo`llaydi. Keyinroq Jon Ronald Tolkin ham uning usulini qo`llab, asarida o`zi yaratgan “o`rtayer” dunyosining “ishonarliligini” isbotlash uchun o`rta asr ingliz tilidan foydalanadi.²

XX asrning o`rtalariga kelib, janrning xususiyatlari qamrovi kengaydi, bunda, ayniqsa, Tolkinning adabiy xizmatlari beqiyos. Uning yer markazidagi xayoliy dunyoda sodir bo`ladigan voqealar tasvirlangan “Hobbit”(1937) va “Uzuklar hukmdori”(1954-1955) roman-epopeyasi fentezi va ushbu janrda ijod qiluvchi bolalar adabiyoti yozuvchilari uchun kuchli turtki bo`ldi. Ushbu asarlar

¹Bobulová I., Pokrivčáková S., Preložníková E., Přibyllová I. Children’s and Juvenile Literature / (Written in English). Nitra : Univerzita Konštantína Filozofa, 2003. p. 99-100.

²Энциклопедический словарь английской литературы XX века. — М.: Наука, 2005. с. 464-465.

nafaqat bolalar adabiyotining, balki fentezi janrining ham keyingi rivojlanish yo`lini belgilab berdi.

Oradan 40 yildan ortiqroq vaqt o`tib, ya`ni 1997-yilda ingliz adibasi Joan Rouling o`zining fentezi janrida yozilgan “Garri Potter” asarini chop ettirdi va tez orada bolalar adabiyotidagi eng shov-shuvli va eng ko`p tilga tarjima qilingan asarlardan biri bo`ldi. Garri Potter fenomeni butun dunyoni qamrab oldi. Axborot va fan-texnika taraqqiy etib, bolalar va o`smirlar kitobdan uzoqlashgan bir paytda dunyo yuzini ko`rgan bu asar bolalarni yana kitob dunyosiga qaytardi. 11 yoshli sehrigar bola Garri Potterning sehrigari va afsungarlik maktabi Hogvartsdagi sarguzashtlarini butun dunyo bolalari qiziqish bilan o`qib chiqishdi. Bunga o`xshash voqealar tasvirlangan asarlar Meri Frensis Zembreno va Diana Uins Jons kabi fentezi yozuvchilari tomonidan yozilib, omma e`tiboriga taqdim qilingan bo`lsa-da, ularning hech biri Joan Rouling asaridek kitobxonlar e`tirofiga sazovor bo`la olmadi.<sup>1</sup> XX asr oxiri va XXI asr boshlariga kelib ham ma`lum ma`noda Roulingning ko`magi bilan fentezi janri hamon bolalar adabiyotida yetakchi janrlardan biri bo`lib kelmoqda.

Butun dunyoga “Garri Potter” asari muallifi sifatida tanilgan Joan (Joanna) Ketlin Rouling 1965-yil 31-iyulda Angliyaning Glostershir shahrida samolyotsozlik muhandisi Piter Jeyms Rouling va Anna Roulinglar xonadonida dunyoga keldi.

Rouling ilk ta`limni abolitsionizm tarafdori Uilyam Vilberfors va ta`lim islohotchisi Hanna Mor tomonidan tashkil etilgan Muqaddas Maykl boshlang`ich maktabida olgan. Maktab direktori Alfred Dan “Garri Potter” asaridagi Hogvarts - sehrigari va afsungarlik maktabi direktori Albus Dambldor roli uchun prototip bo`lgan degan fikrlar ham bor.²

Bolaligidanoq Rouling hikoyalar yozib turar va ularni singlisiga o`qib berardi. “Haligacha singlimga uning quyon uyasiga tushib ketgani va u yerda quyonlar oilasi uni qulupnay bilan mehmon qilgani haqidagi hikoyani so`zlab

¹D`ammassa, Don. Encyclopedia of Fantasy and Horror Fiction. – New York: Facts on File, 2006. p.165.

²Kirk, Connie Ann. J. K. Rowling: a biography. – Westport, Conn: Greenwood Press, 2003. p.28.

berganimni eslayman. Mening eng birinchi yozgan hikoyam (o`shanda besh yoki olti yoshda edim) Quyon nomli quyon haqida edi. Unga qizamiq toshadi va Miss Bi (Ari xonim) nomli bahaybat ari bilan boshqa do`stlari uni ko`rishga kelishadi.”

Rouling o`smir chog`ida o`z ta`biri bilan aytganda “unga mumtoz filologiyani o`rgatgan va hamisha bilimga chanqoqlikni qo`llaydigan” katta ammasi unga Jessica Mitfordning avtobiografik asari “Hons and Rebels” (“Ulug`lar va inqilobchilar”)ning eski nusxasini sovg`a qiladi. Kitobni o`qigan kundan boshlab Mitford Roulingning qahramoniga aylanadi va u yozuvchining hamma kitoblarini birma-bir o`qib chiqadi.

Rouling o`zining “Nyu Yorker” gazetasiga bergan intervyusida o`smirlik yillarini eslab, shunday deydi: “Men o`zimni baxtli his qilmaganman. O`ylashimcha, o`sha yillar hayotimning eng yoqimsiz davri bo`lgan”.¹ Chunki onasining kasalligi va otasi bilan munosabatlarining yomonligi oilaviy hayotni murakkablashtirib yuborgan edi.

1982-yilda Rouling Oksford universitetiga kirish imtihonlarini topshiradi, ammo omadi kelmay o`qishga kira olmaydi. Shundan keyin Ekseter universitetiga o`qishga kirib, fransuz tili va mumtoz filologiya yo`nalishi bo`yicha tahsil oladi. Parijda bir yil davomida tahsil olib qaytgach, 1986-yilda Rouling Ekseter universitetini tugatadi. Keyin esa Londonga kelib, Xalqaro amnistiya tashkilotining tadqiqot bo`limiga kotiba bo`lib ishga kiradi.

1990-yilda Rouling Manchestrda ko`chib o`tadi. O`sha yili Manchestrda Londonga qatnovchi poyezdda keta turib, xayoliga sehrgarlik maktabida o`qiydigan bola haqidagi hikoya g`oyasi keladi. Yozuvchi “The Boston Globe”ga bergan intervyusida “To`g`risi, bu g`oya menga qayerdan kelganini bilmayman. Avvaliga Garri obrazi, keyin esa boshqa barcha qahramonlar va

¹Parker, Ian. Mugglemarch. – The New Yorker. October 1, 2012.

voqealar tasviri birma-bir koʻz oʻngimdan oʻta boshladi”, deydi.¹ Rouling oʻz saytida “Garri Potter”ning yaralishini shunday izohlaydi:

“Men yolgʻiz oʻzim yoʻlovchi toʻla poyezdda Londonga ketayotganimda, toʻsatdan Garri Potter gʻoyasi xayolimga keldi. Olti yoshimdan buyon yozish bilan muntazam shugʻullangan boʻlsam ham, hech bir gʻoya meni bunchalik hayajonga solmagan edi. Oʻz sehrgarligidan bexabar bu koʻzoynakli qorasoch bola tasviri koʻz oldimda borgan sari yaqqol namoyon boʻla boshladi. Afsuski, yonimda oʻsha paytda ruchkam yoʻq edi. Kelayotgan bu gʻoyalarni tezda qogʻozga tushirmasam, balki ularning ancha-munchasini keyinroq unutib yuborishim mumkin edi. Shu kuniyoq “Falsafa toshi”ni yozishni boshlab yubordim”.²

Oʻsha yili dekabr oyida Roulingning onasi oʻn yillik xastalikdan soʻng vafot etadi. Yozuvchi bunday yoʻqotishdan qattiq qaygʻuga tushadi, uning oʻsha paytdagi ruhiy holati asarga ham taʻsir qilmay qolmaydi. Yoʻqotish azobini boshidan kechirgan Rouling, birinchi kitobda Garrining yoʻqotishlarini batafsil tasvirlab beradi.

“Guardian” gazetasida berilgan eʼlonni oʻqigach, Rouling Portugaliyaning Porto shahriga ingliz tili oʻqituvchisi boʻlib ishga boradi. Kechki paytda oʻqituvchilik qilsa, kunduzlari asar yozishda davom etardi. Oʻsha paytda u portugaliyalik journalist Jorj Arantes bilan tanishib, 1992-yilda u bilan turmush quradi. Oradan bir yil oʻtib, 1993-yil 27-iyulda qizlari Jessika Izabel Rouling Arantes dunyoga keldi. Afsuski, ularning turmushi uzoqqa choʻzilmadi, oʻsha yili noyabr oyida ular ajrashishga qaror qilishadi. Rouling qizi va “Garri Potter”ning uch bobini olib Edinburgda yashaydigan singlisinikiga koʻchib boradi. Turmushi buzilib, qoʻlida chaqalogʻi bilan ishsiz qolgan kunlarini Rouling aslida muvaffaqiyatsizlikdan qutulish davri boʻlgan, deb eslaydi: “Muvaffaqiyatsizligim aslida keraksiz narsalardan xalos boʻlish davrim edi.

¹Loer, Stephanie. All about Harry Potter from quidditch to the future of the Sorting Hat. – The Boston Globe. October 18, 1999.

²Fenske, Claudia. Muggles, Monsters and Magicians: A Literary Analysis of the Harry Potter Series. – Frankfurt: Peter Lang Publishing, 2008. p.17.

O'sha paytdan boshlab men o'zimni aldashni bas qildim va endi bor kuchimni men uchun ahamiyatli bo'lgan asarimni tugatishga sarflay boshladim. Agar o'sha davrda boshqa sohada muvaffaqiyatga erishganimda, hozir aslida menga yoqadigan ish bilan shug'ullanmayotgan bo'lar edim. Men ozod bo'lgandim, chunki men eng qo'rqqan voqea allaqachon sodir bo'lgandi. Ammo men haliyam tirik edim, menga kuch beradigan qizim, eski mashinkam va buyuk g'oyam bor edi. Shunday qilib, muvaffaqiyatsizligim hayotimni yangidan qurishim uchun asos bo'ldi".¹

Xuddi shu davrda Roulingga shifokorlar klinik depressiya tashxisini qo'yishadi, yozuvchi bergan intervyusida o'sha paytda xayoliga o'z joniga qasd qilish fikri kelganini tan oladi. Asarning uchinchi kitobida tasvirlangan ruh so'ruvchi dementorlar g'oyasi o'sha ruhiy holatini eslaganda kelgan. Ammo o'zini qo'lga olishga kuch topa olgan Rouling 1995-yilda Edinburg universiteti qoshidagi Morey ta'lim maktabida o'qituvchi tayyorlash kurslarida tahsil oladi. Bu vaqtga kelib, u hali ham davlat tomonidan beriladigan ijtimoiy himoya hisobiga kun ko'rardi. Rouling "Garri Potter"ning birinchi kitobini yozib bo'lgach, uni nashr qildirish uchun 12 ta nashriyotga yuboradi, biroq hech bir nashriyot asarni qabul qilmaydi.² Bir yil davomida asarini nashr qildirolmay yurgan Rouling Londondagi Bloomsbury nashriyoti tahrirchisi Berri Kanninghemdan kitobni chop etishga ruxsat oladi. Nashriyot kitobni chiqarishga ruxsat bergan bo'lsa-da, Kanninghem yozuvchiga bolalar uchun asar yozishdan ko'p daromad kelmasligini aytib, tezda boshqa qo'shimcha ish ham topishi kerakligini maslahat beradi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, 1997-yilda Shotland san'at kengashi Roulingga asarni yozishni davom ettira olishi uchun 8000 funt taqdim etishadi.

1997-yil iyun oyida "Harry Potter and the Philosopher's stone" ("Garri Potter va falsafa toshi") 1000 nusxada bosib chiqariladi, shundan 500 nusxasi

¹Rowling, J.K. The Fringe Benefits of Failure, and the Importance of Imagination./ Text of J.K.Rowling's speech at the Harvard Commencement Ceremony. – Harvard Gazette. June 5, 2008

²Bilton, Ch., Cummings, S. Handbook of Management and Creativity. EdwardElgar Publishing, 2014. p.168.

kutubxonalarga tarqatiladi. Besh oy o'tgach, kitob birinchi mukofot "Nestle Smarties Book Prize"ni qo'lga kiritadi, fevral oyida esa "British Book Award", keyinroq "Children's Book Award" kabi kitob taqdimotlarda "Yil kitobi" nominatsiyasi bo'yicha mukofotlanadi. 1998-yilda o'tkazilgan auksionda Scholastic Inc. nashriyoti 105.000 dollar pul tikib, kitobni AQSHda nashr etish huquqini qo'lga kiritadi. Oktabr oyida kitob "Harry Potter and the Sorcerer's stone" ("Garri Potter va sehrgar toshi") nomi bilan nashrdan chiqdi. Birinchi kitobda muallifning o'z ismi Joanna Rouling to'liq yozilgan edi. Ammo o'g'il bolalarning ayol yozuvchilar tomonidan yozilgan kitoblarni o'qishni xushlamasliklarini hisobga olib, nashrlar adibadan ismi o'rniga ikkita initsial ishlatishini maslahat berishdi. Shuning uchun Rouling keyingi kitoblarni J.K.Rouling taxallusi ostida nashr ettirdi.

Asarning davomi "Harry Potter and the chamber of secrets" ("Garri Potter va maxfiy xona") 1998-yil iyul oyida dunyo yuzini ko'rdi. Bu safar ham Rouling kitobi uchun "Nestle Smarties Book Prize" mukofotini qo'lga kiritdi. Oradan bir yil o'tib chop etilgan uchinchi kitob "Harry Potter and the prisoner of Azkaban" ("Garri Potter va Azkaban mahbusi") ham yuqoridagi mukofot bilan taqdirlangach, Rouling mukofotni uch marotaba ketma-ket qo'lga kiritgan birinchi yozuvchi bo'ldi. "Garri Potter"ning to'rtinchi kitobi "Harry Potter and the goblet of fire" ("Garri Potter va olovli jom") Buyuk Britaniya va AQSHda bir kunda, 2000-yil 8-iyulda sotuvga chiqarildi. Buyuk Britaniyada birinchi kuni 400 mingga yaqin, AQSHda esa 48 soat ichida 3 million nusxada sotilgan kitob eng tez sotilgan kitoblar rekordini yangiladi. Ammo yozuvchi to'rtinchi qismni yozish davrida ijodiy inqirozga duch kelganini tan oladi: "To'rtinchi kitobning yarmiga kelganimda, syujetda jiddiy xatoga yo'l qo'yganimni angladim. Shunda bitta bobni o'n uch marta qayta yozishimga ham to'g'ri kelgan. Biroq kitobni o'qiganlar u aynan qaysi bob ekani va menga nechog'lik qiyinchilik

tug'dirganini bilishmaydi".¹ Aynan shu kitob uchun 2000-yilda Rouling British Book Awardsda "Yil yozuvchisi" unvoni bilan taqdirlandi. Kitobning beshinchi qismi "Harry Potter and the order of phoenix" ("Garri Potter va qaqnus ordeni") oradan 3 yil o'tib, 2003-yilda nashrdan chiqdi. 2005-yil iyulda oltinchi kitob "Harry Potter and half-blood prince" ("Garri Potter va shahzoda tilsimi") sotuvga chiqqach, birinchi kuniyoq 9 million nusxada sotildi va yana rekord natija o'rnatildi. Asarning so'nggi yettinchi kitobi "Harry Potter and the deathly hallows" ("Garri Potter va ajal tuhfalari") 2007-yil 21-iyulda Buyuk Britaniya va AQSHda sotuvga chiqdi, bu galgi natija avvalgi rekordlarni yana yangiladi: kitob bir kunda 11 million nusxada sotildi. Shunday qilib, 1997-yildan nashr etila boshlangan "Garri Potter" 2007-yilga kelib o'z nihoyasiga yetdi. Hozirda "Garri Potter" ommaviy brend sanalib, uning qiymati 15 milliard dollar deb baholangan. Kitobning oxirgi to'rt qismi eng tez sotilgan kitoblar sifatida rekord o'rnatgan.

2012-yilda Roulingning agentligi o'z saytida yozuvchining kattalarga mo'ljallangan asari yaqin orada nashrdan chiqishi haqida e'lon qildi. Yangi asar taqdimotiga bag'ishlangan jurnalistlar bilan uchrashuvda Rouling "Garri Potter"ni yozishdan benihoya zavq olgan bo'lsam-da, yangi kitobim avvalgisidan umuman farq qiladi" deydi. Roulingning bu yangi asari "Casual vacancy" ("Tasodifiy bo'sh o'rin") deb nomlanib, unda sinfiy, ijtimoiy va siyosiy muammolar ko'tarib chiqilgan. Kitob sotuvga chiqarilgach, uch hafta davomida 3 million nusxada sotilib, yilning bestseller asarlari qatoridan joy oldi.

I bob bo'yicha xulosalar

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Angliya bolalar adabiyoti mustaqil adabiyot sifatida ajralib chiqqanidan buyon salkam to'rt asr vaqt o'tgan bo'lsa-da, u allaqachon dunyo bolalar adabiyotining eng ko'zga ko'ringanlari qatoridan mustahkam o'rin egallashga ulgurdi. Bu asrlar davomida uning janr, mavzu,

¹Johnstone, Anne. The hype surrounding the fourth Harry Potter book belies the fact that Joanne Rowling had some of her blackest moments writing it – and that the pressure was self-imposed a kind of magic. – The Herald. July 8, 2000.

g`oya va tuzilishi soddalikdan murakkablik ko`rinishini olib kelaverdi. Daniel Defo, Jonatan Swift, Charlz Dikkens, Lyuis Kerrol, Redyard Kipling, J.R.R.Tolkin kabi zabardast yozuvchilar tomonidan yaratilgan asarlar hozirga qadar jahon bolalar adabiyoti durdonalari safida egallagan o`rnini yo`qotgan emas. O`zining puxta ishlangan syujeti, takrorlanmas obrazlari va qiziqarli sarguzashtlari bilan kitobxon bolalarni sehlrab olgan “Garri Potter” asari orqali Rouling Angliya bolalar adabiyotining badiiy salohiyati kuchini barchaga namoyon etdi. Bir necha yil ichida 60dan ziyod tillarga tarjima qilinib, uning asosida filmlar suratga olingan “Garri Potter” nomi tanish bo`lmagan, bugungi kunda asar kirib bormagan xonadon kamdan kam topilsa kerak.

FOR AUTHOR USE ONLY

II BOB. “GARRI POTTER” – BUTUNJAHON BOLALARI KITOBİ

2.1. “Garri Potter” asarida zamon va makonning ifodalanishi

Ma'lumki, badiiy asarda tasvirlanayotgan voqealar ma'lum bir makon va zamonda kechadi. Makon va zamon badiiy asarlarda tasvirlangan voqealar rivojida asosiy omillardan biri hisoblanib, ular ham syujet, obraz, mavzu va uslub kabi badiiy asarning muhim unsurlaridir. Chunki badiiy asar u yoki bu darajada borliqni, obyektiv voqelikni ifodalaydi, zamon va makon esa borliqning asosiy shakllaridir; shuningdek, hech bir voqea yoki hodisa muayyan hudud va vaqtdan tashqarida sodir bo'la olmaydi.

Makon (voqea joyi) tushunchasi insonda borliqning obyektiv shakllari, makon va vaqt haqidagi tushunchalarining kengayishi, shuningdek, badiiy asarning uslubi, turi va janriga qarab o'zgarib borishi mumkin. Makon kategoriyasi asosan his-tuyg'ular tasviriga qaratilgan lirik janrda unchalik ahamiyatga ega emas. Ammo shoirning o'y-kechinmalari bilan bog'liq tashqi dunyoni tasvirleydigan lirik hissiyot asosiy o'rin tutadigan lirik janrlar va asarlar bundan mustasno. Inson hayotidagi turli voqea-hodisalar va shart-sharoitlar bayon qilinadigan epik janrdagi asarlar uchun makon eng muhim badiiy unsur hisoblanadi. Bunda voqealar aniq makonda sodir bo'lib, ma'lum hollarda qahramonlar hamda ularning sa'y-harakatlarini xarakterlovchi omil ham sanaladi.¹ Qahramonlarning xatti-harakati, ularning o'y-kechinmalari, asarda tasvirlanayotgan kishilarning yurish-turishi, kiyinishi, turmush tarzi bevosita ular yashab turgan makon va zamonning ta'siri ostida bo'ladi. Masalan, naturalizm yo'nalishi vakili Emil Zolyaning asarlarida makon va zamon eng muhim ahamiyat kasb etadi, chunki yozuvchining ishonishicha, qahramonlarning qandayligini ularni o'rab turgan atrof-muhit belgilab beradi. Ba'zi hollarda esa, asardagi butun voqealar rivoji ular sodir bo'layotgan makon bilan belgilanadi. Gyustav Floberning “Bavari xonim” asari uchun Parij makon

¹ Литературная энциклопедия. — Т.:8. М.: гос.словарно-энцикл.изд-во “Сов.Энцикл.”, 1934.

qilib olinsa noto`gri bo`lardi, chunki qahramonning fojiali hayoti va o`limi sababi u yashab turgan qishloq muhitiga borib taqaladi.¹

Voqealar aniq geografik hududda yoki xayoliy makonda ham sodir bo`lishi mumkin. Hayotiy haqiqatga naqadar mos kelishiga ko`ra makonni ikkiga: real va noreal (xayoliy) makonga bo`lish mumkin. Realistik asarlarda voqealar ma`lum bir geografik hududda sodir bo`lsa, fentezi kabi janrda yozilgan asarlarda voqealar asosan noreal yoki xayoliy makonda yuz beradi. Masalan, Lev Tolstoyning “Urush va tinchlik” asarida 1805-1812-yillar oralig`ida rus jamiyatining Napoleonga qarshi kurashi davri aks ettiriladi. Ko`rinib turibdiki, voqealar aniq vaqtda va aniq makonda sodir bo`ladi. Fentezi janrida yozilgan “Uzuklar hukmdori” trilogiyasida esa Tolkin butun boshli xayoliy dunyo yaratadi, bu dunyoning o`z tarixi, alohida bo`lingan hududlari, turli tillarda so`zlashuvchi xalqlari-yu ularning ko`rinishlarigacha aniq ishlab chiqilgan edi. Roulingning “Garri Potter” asarida esa voqealar faqatgina tashqi tomondan bizning dunyoga o`xshash dunyoda, aniqrog`i Angliyada bo`lib o`tadi. Garchi voqealar va ular sodir bo`ladigan hududi butunlay muallif badiiy to`qimasi mahsuli bo`lsa-da, kitobda voqealar sodir bo`ladigan payt aniq ko`rsatilgan. Birinchi kitobda hikoya 1980-yilda Garrining dunyoga kelishi bilan boshlanadi, 1991-yilda esa o`n bir yoshli Garri Hogvarts maktabiga birinchi bosqich o`quvchisi bo`lib boradi. Asarning har bir kitobi Garri hayotining bir yilini qamrab olib, Garrining sarguzashtlari o`rta maktabni tugatgungacha bo`lgan davr 1991-yildan 1998-yilgacha davom etadi.

Yuqorida asar voqealari bizning dunyomizga o`xshash dunyoda sodir bo`lishini aytib o`tgandik, Rouling tasvirlagan dunyoning real dunyodan farqi shundaki, unda oddiy odamlar (Rouling bu o`rinda “magl” so`zini qo`llaydi) bilan birga sehrgarlar va afsungarlar ham hayot kechirishadi. Ular turli afsunlar o`qib, sehrlar tayoqchalari yordamida xohlagan ishlarini bajara olishadi, ammo oddiy odamlar, ya`ni magllar o`zlari bilan yondosh yashayotgan bunday kishilar

¹Setting (literary device). Encyclopedia Britannica. <http://www.britannica.com>

borligidan butunlay bexabar. “Chunki ular hech qachon hech nimaga e’tibor berishmaydi.”

‘How come the Muggles don’t hear the bus?’ said Harry.

‘Them!’ said Stan contemptuously. ‘Don’ listen properly, do they? Don’ look properly either. Never notice nuffink, they don’.’¹

Rouling Tolkindan farq qilgan holda butunlay xayoliy dunyo yaratmay, aksincha, real hayotning ayrim ko`rinishlarigina o`zgartirilgan sehrgarlar dunyosini tasvirlagan. Qiyoslab ko`radigan bo`lsak, sehrgarlar yashaydigan dunyoda ham xuddi biznikidagidek maktab, kasalxona, turli idoralar, temiryo`l, hatto gazeta va jurnallar ham bor. Vaqt-vaqti bilan sehrgarlarning o`ziga xos sporti – kviddich bo`yicha musoboqalar ham o`tkazib turishadi. Sehr va afsunlar yordamida hamma ishga qodir bu sehrgarlar oddiy odamlar foydalanadigan texnikani o`z hayotlarida qo`llashmaydi. Ularning magllar ishlatadigan texnikaga munosabati Viktoriya davridagi munosabatdan farq qilmaydi, hattoki texnikaning sehrgarlar dunyosiga kirib kelmasligi Sehrgarlik ishlari vazirligining maxsus qo`mitasi tomonidan qattiq nazorat qilinadi. Jumladan, “Garri Potter va maxfiy xona” qismida hech qachon telefondan foydalanib ko`rmagan Ron Uizlining Garriga qo`ng`iroq qilishi lavhasi o`quvchida kulgu bilan birga hayrat uyg`otadi. Nahotki, ko`pgina hayratlanarli ishlarga qodir sehrgarlar oddiy telefondan foydalana olishmasa? Bunga o`xshash voqealar asarda yana ko`plab topiladi. Masalan, ular pochta o`rnida xat tashuvchi boyqushlardan, yozuvda esa ruchkalar o`rnida pat va siyohdan foydalanishadi. Elektr toki va elektr uskunalar sehrgarlar dunyosi uchun umuman begona: maktab va uylar sham bilan yoritiladi, chunki afsun va sehr texnik asboblarni ishdan chiqarib, sehr-jodu qo`llaniladigan hududlarda elektr toki ham ishlamay qoladi.

Maktablarni solishtiradigan bo`lsak, Angliyada o`quvchilar olti yil davomida boshlang`ich maktabda tahsil olishgach, o`n bir yoshda o`rta maktabga o`tishadi. Hogvarts sehrgarlar va afsungarlar maktabiga ham

¹Rowling, J.K. Harry Potter and the Prisoner of Azkaban. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 1999. p. 32.

sehrgarlik qobiliyati bor o`quvchilar o`n bir yoshdan qabul qilinadi. Shu o`rinda aytib o`tish joizki, Hogvarts maktabi Angliyada bir necha asr mobaynida faoliyat yuritib kelgan maktab-internatlarga o`xshash – unda ham o`quvchilar yotoqxonada turib, faqat bayram va ta`tillardagina oilalariga qaytishadi. Hogvarts sehrgarlik va afsungarlik maktabi bo`lgani uchun unda ona tili, matematika, tarix va shunga o`xshash fanlar o`rniga sehrgarlik tarixi, qora kuchlarga qarshi afsun, kelajakni bashorat qilish, sehrli ichimlik va dorilar tayyorlash kabi fanlar o`qitiladi. Maktab devorlarida osilgan suratlarda tasvirlangan kishilar doim harakatlanib turishadi, ular o`quvchilar bilan salomlashib, ba`zida o`quvchilarning savollariga javob ham berishadi. Eng qizig`i suratdagi insonlar bir-birlarini ko`rgani borib turishadi.

*It was also very hard to remember where anything was, because it all seemed to move around a lot. The people in the portraits kept going to visit each other and Harry was sure the coats of armour could walk.*¹

Hogvartsda qulflar o`rniga parol so`rovchi suratlar ilib qo`yilgan bo`lib, bunday eshiklarni hech qanday sehr va afsun yordamida ochishning iloji yo`q. Bundan tashqari, maktabning har yerida kezib yurgan arvohlarga ham duch kelish mumkin. Sehrgarlik tarixi fanidan ham vafot etganiga bir necha yillar bo`lgan professorning arvohi dars beradi. Maktabga ilk bor kelgan o`quvchilarni yanada hayratlantiradigan yana bir holat bu zinalarning doimiy harakat qilishidir. Maktabda bunday zinalar soni bir yuz qirq ikkita bo`lib, ularning qay paytda qay yo`nalishda harakatlanishini eslab qolish boshida biroz qiyinchilik tug`diradi. Shuningdek, maktabning shunday qismlari mavjud ediki, ularga qadam qo`yish o`quvchilarga ta`qiqlangan edi. Yana shunday xonalar bor bo`lib, ularning qayerda ekani va qanday ochish mumkinligini hatto professor o`qituvchilar ham bilishmasdi. “Maxfiy xona” (“Chamber of secrets”) ham xuddi shunday yashirin xona bo`lib, u aynan qayerda joylashgani va unda nima borligidan hech kimning xabari yo`q. Ko`pchilik bu xonani faqat afsona deb o`ylab, uning borligiga ishonishmaydi.

¹Rowling, J.K. Harry Potter and the Philosopher's stone. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 1997. p. 98.

*'Slytherin, according to the legend, sealed the Chamber of Secrets so that none would be able to open it until his own true heir arrived at the school. The heir alone would be able to unseal the Chamber of Secrets, unleash the horror within, and use it to purge the school of all who were unworthy to study magic.'*¹

Afsonaga ko`ra, maxfiy xona Salazar Slizerin tomonidan yaratilgan bo`lib, uni faqat Slizerinning haqiqiy merosxo`ri ocha oladi. Garri do`stlari Ron va Germiona yordamida maxfiy xonaga kirish yo`lini topadi hamda u yerda bir necha asrlardan buyon yashab kelayotgan dahshatli vasilisk ilonini yo`q qiladi.

Hogwartsda juda ozchilikka ma`lum yana bir sehrli xona mavjud bo`lib, uni Bor-Yo`q xona ("Come and Go Room") yoki "Darkor xona" (Room of requirement") deb atashadi. Bu xonaga faqatgina kuchli ehtiyoj tug`ilgandagina kirish mumkin, shuning uchun u ba`zida paydo bo`lsa, ba`zida umuman yo`qoladi.

*It is known by us as the Come and Go Room, sir, or else as the Room of Requirement!...It is a room that a person can only enter,' said Dobby seriously, 'when they have real need of it. Sometimes it is there, and sometimes it is not, but when it appears, it is always equipped for the seeker's needs.'*²

Mabodo sehrgar bunday xonaga kirishga muvaffaq bo`lsa, u yerdan o`zi ehtiyoj sezgan hamma narsani topa oladi. Garri Potter tuzgan Dambldor armiyasi aynan mana shu xonada o`z mashqlarini olib borishadi.

Sehrgarlar dunyosining transport vositalari ham o`ziga xos. Ular bir joydan ikkinchi joyga borish uchun asosan transport vositalari o`rniga sehrli usullardan foydalanishadi. To`g`ri, asarning boshida Garri Hogwartsiga yetib olish uchun boshqa bolalar qatori Hogvarts-ekspres tezyurar poyezdida jo`naydi, lekin poyezd o`zi yuradimi yoki boshqaruvchisi bormi bu haqida muallif biror ma`lumot bermagan. Lekin keyinroq Garri o`zi yashayotgan bu g`aroyib dunyoda uchish uchun mo`ljallangan sehrli supurgilar borligidan xabar topadi. Sehrli supurgilar sehrgarlar dunyosida mashhur bo`lsa ham, unda uzoq masofaga

¹Rowling, J.K. Harry Potter and the Chamber of Secrets. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 1998. p.114.

²Rowling, J.K. Harry Potter and the Order of the Phoenix. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 2003. p.343.

borish juda qiyin, shuningdek, oddiy odamlar ko`rib qolish ehtimoli kuchliligi sabab bu vositadan ko`p hollarda faqat sport o`yinlarida foydalaniladi.

Afsungarlar dunyosida eng ko`p qo`llanadigan yana bir vosita bu kaminlar tarmog`i orqali kerakli joyga borish. Bunda sehrgar kaminga sehrli sayohat kukunini sepib, olov ichiga kiradi va aniq qilib kerakli joy nomini aytadi, natijada esa bir necha soniya ichida aytilgan manzilga yetib olinadi.

He took a pinch of glittering powder out of the flowerpot, stepped up to the fire and threw the powder into the flames. With a roar, the fire turned emerald green and rose higher than Fred, who stepped right into it, shouted, 'Diagon Alley!' and vanished.

*'You must speak clearly, dear,' Mrs Weasley told Harry, as George dipped his hand into the flowerpot. 'And mind you get out at the right grate ...'*¹

Agar manzil nomi aniq va ravon aytilmasa, adashib qolish ham hech gap emas. Rouling bu usul bilan o`quvchilarni kitobning ikkinchi qismi "Garri Potter va maxfiy xona" qismida tanishtiradi.

Sehrgarlarning xohlagan manzillariga yetishda qo`llaydigan vositalaridan yana biri bu portaldir. Portal – sehrgarni oldindan mo`ljallab qo`yilgan vaqtda bir joydan boshqa joyga olib o`tishga xizmat qiladigan sehrlangan buyum. Portalning sayohat kukunidan afzallik tomoni shundaki, juda uzoq masofaga ham bir zumda yetib olish va zarur holatlarda portal yordamida bir necha kishini aniq manzilga o`tkazish mumkin. Portal birinchi marta "Garri Potter va olovli jom" kitobida tilga olinadi: "...we use Portkeys. They're objects that are used to transport wizards from one spot to another at a prearranged time. You can do large groups at a time if you need to." ² Unda Garri va Uizlilar oilasi Sehrgarlik ishlari vazirligi tomonidan o`rnatilgan portal orqali kviddich bo`yicha jahon chempionatiga borishadi. 1994-yilgi kviddich bo`yicha jahon chempionatiga tayyorgarlik vaqtida vazirlik butun Angliya bo`ylab, strategik jihatdan muhim nuqtalarda 200dan ortiq potrallar o`rnatib chiqqan edi. Portal faqatgina vazirlik

¹Rowling, J.K. Harry Potter and the Chamber of Secrets. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 1998. p.41.

²Rowling, J.K. Harry Potter and the Goblet of Fire. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 2000. p.66.

tomonidan o`rnatilishi mumkin bo`lib, sehrgarlarning o`zlari portal yaratishlari ta`qiqlangan.

Kitobning xuddi shu qismida transgressiya yoki boshqacha nomi apparatsiya (apparatsiya-havoda yo`qolib, kerakli joyda paydo bo`lish) usuli ham tilga olinadi. *Harry knew that Apparating was very difficult; it meant disappearing from one place and reappearing almost instantly in another.*¹

Ba`zi joylarda apparatsiyani qo`llash ta`qiqlangan, bundan tashqari, hamma sehrgarlar ham bu usuldan foydalana olishmaydi. Faqatgina voyaga yetgan va uzoq vaqt (bir necha oy davomida har haftalik mashg`ulotlar) mashq qilib, maxsus ruxsatnomani qo`lga kiritgan sehrgarlargagina ruxsat berilgan. Hogvarts sehrgarlar va afsungarlar maktabida oltinchi kursni tugatgan talabalar pullik kurslarda apparatsiya qilish usullarini o`rganishadi. Kurs oxirida esa transgressiyani o`rgangan talabalar imtihon topshirib, undan muvaffaqiyatli o`tishsa, apparatsiya qilish uchun ruxsatnomani qo`lga kiritishadi. Ruxsatnomaga ega bo`lmagan va voyaga yetmagan sehrgarlar transgressiyani qo`llashsa, Sehrgarlik ishlari vazirligi tomonidan qattiq jazoga tortiladi. Chunki mabodo transgressiya muvaffaqiyatsiz amalga oshirilsa, bu sehrgarning hayotiga xavf solishi mumkin.

*'The Department of Magical Transportation had to fine a couple of people the other day for Apparating without a licence. It's not easy, Apparition, and when it's not done properly it can lead to nasty complications. This pair I'm talking about went and splinched themselves....They left half of themselves behind,' said Mr Weasley, now spooning large amounts of treacle onto his porridge*²

Bu usulni qo`llay oladigan sehrgar o`zi bilan boshqa kishini ham kerakli joyga olib o`ta oladi. Masalan, "Garri Potter va shahzoda tilsimi" qismida Albus Dambldor apparatsiya vositasida Garrini ham kerakli joyga o`zi bilan birga olib o`tadi. Bu Garrining apparatsiyadagi birinchi tajribasi edi. Xuddi shu kitobning

¹Rowling, J.K. Harry Potter and the Goblet of Fire. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 2000. p.63.

²The same source, p.63.

27-bobida Garrining o'zi mustaqil ravishda apparatsiyani qo'llaydi, bu safar Garri Dambldorni o'zi bilan birga kearkli joyga olib o'tadi.

Bundan tashqari "Garri Potter"da sehrgarlik transportining uchur gilam, uchur mototsikl va uchur mashina kabi boshqa turlarini ham uchurish mumkin.

"Garri Potter" dunyosining yana bir o'ziga xos jihatlaridan biri unda oddiy hayvonlar emas, balki sehrli mavjudotlar yashaydi. Masalan, kentavrlar (asosan o'rmonda yashaydigan juda mag'rur yarmi ot, yarmi odam mavjudotlar), goblinlar (odamlarga o'xshab ketadigan, bo'yi pastroq mavjudotlar), xonaki elflar (sehrgarlarning uylarida xizmatkorlik vazifasini bajarishadi, ammo ba'zi sehrgarlik imkoniyatlari sehrgarlarnikidan ko'ra kuchliroq), qaqnuslar, ajdarlar, hippogriflar va hkz.

"Garri Potter"ning sehrli dunyosida barcha sehr va afsunlar faqatgina sehrli tayoqchalar yordamida amalga oshiriladi. Sehrli tayoqchalar uni ishlatadigan sehrgarning afsun kuchini yanada kuchaytiru oladi, lekin boshqa sehrgarga tegishli yoki o'g'irlangan tayoqchalar aksincha afsun kuchini kamaytirib yuboradi. Chunki tayoqcha ilk bor tanlanganda u va sehrgar o'rtasida rishta paydu bo'ladi. Shuning uchun hech bir sehrgar o'z sehrli tayoqchasidan boshqasini ishlatishni xohlamaydi. Lekin sehrli tayoqcha jang paytida mag'lub bo'lgan sehrgardan tortib olinsa, u yangi xo'jayiniga sodiqlik bilan xizmat qiladi.

"Garri Potter" dunyosida asosan sehrgarlar hayot kechirishadi. Sehrgarlar sehr va afsunni qo'llay olish qobiliyati bilan tug'ilgan insonlardir. Sehrgarlar orasida katta bo'layotgan bolada uning qobiliyati to'rt-olti yoshlarida namoyon bo'la boshlaydi. Oddiy odamlar orasida o'sayotgan bola esa o'z qobiliyatidan umuman bexabar bo'lishi mumkin, faqat ma'lum vaziyatlardagina (masalan, qattiq ruhiy ezilganda yoki xavf tug'ilganda) uning ba'zi qobiliyatlari namoyon bo'ladi. Sehr va afsunlarni aniq va samarali qo'llash uchun sehrgarlik va afsungarlik maktablarida ta'lim olinib, qobiliyat malaka va ko'nikmaga aylantiriladi.

Sehrgarlik qobiliyati aslida tug`ma bo`lib, bola yoki shu qobiliyat bilan tug`iladi, yoki umuman bunday qobiliyatga ega bo`lmasligi mumkin. Sehrgarlik va afsungarlik qobiliyatini ta`lim orqali o`zlashtirishning iloji yo`q. Qobiliyati bor bolalargina sehrgarlik maktablarida ta`lim olib, o`z qobiliyatlarini kuchaytirish imkoniga ega bo`lishadi. Sehrgarlik qobiliyati olingan ta`limning sifati va davomiyligi, sehrgarning ta`lim olishga bo`lgan tayyorgarligi va ishtiyoqining kuchliligi hisobiga o`sib borishi mumkin. Ba`zi sehrgarlarda boshqalarda uchramaydigan noyob qobiliyatlar ham kuzatiladi. Masalan, Hogvartsning Slizerin kolleji asoschisi Salazar Slizerin (shuning uchun Slizerinlarning ramzi ilon), yovuz sehrgar Voldemort va Garri Potterda ilonzabonlik qobiliyati bor edi, ya`ni ular ilonlar tili (parseltang yoki serpentargo)ni tushunishadi va unda so`zlay olishadi. Bu qobiliyat faqatgina sanoqli sehrgarlarda uchraydi. Ilonzabonlik qobiliyatining aynan yovuz sehrgar sifatida tanilgan Salazar Slizerin va Voldemort kabi sehrgarlarda uchrashi va ko`p hollarda ilonlardan qora sehr uchun foydalanishlarini inobatga olib, ko`pchilik sehrgarlar ushbu qobiliyat faqat yovuz sehrgarlarga beriladi deb ishonishadi. Agar parseltang faqat yovuz sehrgarlarning qobiliyati bo`lsa, u holda Garri Potter qanday qilib ilonlar tilida so`zlashish qobiliyatiga ega bo`ldi degan savol tug`iladi. Aslida, ilonzabonlik Garrida tug`ma qobiliyat emas, Garrini yo`q qilish uchun unga qarg`ish afsunini yuborgan Voldemort o`zi bilmagan holda unga o`zining shu qobiliyatini ham o`tkazib yuboradi. Asar so`ngida Voldemort mahv etib, yo`q qilingach Garrining ilonzabonlik qobiliyati ham o`z-o`zidan yo`qoladi.

Shuningdek, ba`zi sehrgarlarda animaglik qobiliyati bo`lib, ular istagan vaqtlarida o`zlari tanlagan mavjudot qiyofasiga o`ta olishadi. Bu qobiliyat tug`ma emas, balki unga mashq qilish orqali erishib bo`ladi. Lekin sehrgarlar dunyosining qoidalariga ko`ra sehrgar animaglik qobiliyatiga ega bo`lsa, u vazirlik ro`yxatidan o`tishi kerak. Professor Minerva Makgonagol ham animaglik qobiliyatiga ega, ammo u ro`yxatdan o`tgan yagona animag sehrgar. Bundan tashqari, metamorf sehrgarlar, ya`ni tana shakli va ko`rinishini

o'zgartira oladigan sehrgarlar (Nimfadora Tonks) ham mavjud. Ular vaziyat taqozosi bilan yuz tuzilishlari, sochlarining uzunligi va rangini tezlik bilan o'zgartira oladilar.

Shunday qilib, Garri Potterda ham odamlarning ko'rinishi, kiyinishi bizning dunyodan farq qilmasa ham, ular ishlatadigan o'ziga xos so'zlar (afsunlar, buyum nomlari, sport turlari va hkz.), transport vositalari, pul birliklari, turli mavjudotlar va kishilarning ijtimoiy guruhlari bizning dunyodagidan butunlay farq qiladi. Sehrgarlar dunyosi oddiy odamlar dunyosi bilan yondosh, ammo uning ko'zga ko'rinmas qismi bo'lib, ba'zi hollarda oddiy insonlar sehrgarlar dunyosi hodisalariga guvoh bo'lib turishadi. Masalan, kitobning birinchi qismi boshida janob Dursli ishga ketayotib, xarita o'rganayotgan mushukka ko'zi tushadi. Keyinroq esa g'alati rido kiyib olgan to'p-to'p kishilar uning e'tiborini tortishadi, chunki bunday kiyimli kishilarni London ko'chalarida bu paytgacha uchratmagandi. O'sha kuni mamalakat bo'ylab ko'plab boyqushlarning kunduz paytida uchib yurgani aholining e'tiborini tortadi. Aslida sehrgarlar mag'llar e'tiborini tortmay yashashga harakat qilishadi, chunki oddiy insonlar baribir ularni to'g'ri qabul qilishlariga ishonishmaydi. Faqatgina sehrgarlik qobiliyati bilan tug'ilgan oilalarning a'zolari va mamlakat bosh vaziri bunday dunyoning mavjudligini bilishadi, xolos.

Rouling yaratgan dunyo voqealari bizning dunyoda, biz yashayotgan davrda va asosan maktabda (garchi u sehrgarlar maktabi bo'lsa-da) bo'lib o'tishi asarning ishonarliligi va shu bilan birga o'ziga xosligini ta'minlagan.

2.2. Asarda sehrgarlar obrazi talqini

Obraz san'atkor nuqtai nazari bilan boyitilib ifodalangan hayotdir. Obrazda badiiy adabiyotning ham mazmuni, ham shakli mujassamlanadi. Adabiyot hayotni obraz orqali aks ettiradi va shu orqali biladi.

Keng ma'noda obrazga badiiy asarlarda tasvirlangan barcha iboralar, voqea-hodisalar, narsa va predmetlar, parranda va hayvonlar, o'simlik va tabiat

manzaralari, shu bilan birgalikda, inson xarakterlari kiradi. Tor ma'noda esa obraz deganda biz badiiy asarlardagi odamlarni, inson xarakterlarining tushunamiz.

Ijodiy metod taqozosiga ko'ra obrazlar quyidagicha bo'linadi:

- realistik
- romantik
- xayoliy-fantastik
- afsonaviy
- ramziy
- mifologik
- satirik
- mubolag'ali
- groteskli
- majoziy-allegorik

Xayoliy-fantastik obrazlar benihoyat bo'rttirilgan, mo'jizaviy xarakterga ega bo'lgan obrazlardir. Xayoliy-fantastik obrazlar ko'proq xalq og'zaki ijodida hamda yozma adabiyotning ilmiy-fantastik turida uchraydi.¹ Xuddi shu jihati bilan "Garri Potter"da tasvirlangan obrazlarni ham xayoliy-fantastik obrazlar turiga kiritish bo'ladi. Chunki asar qahramonlarining asosiy qismini (magillardan tashqari) sehr va afsunlarni qo'llay olish xususiyatiga ega sehrgarlar tashkil etadi.

Sehrgarlik asosan avloddan avlodga o'tib keladi, ya'ni bola ota-onasining har ikkalasi ham sehrgar yoki bittasi sehrgar bo'lishi mumkin. Shu xususiyatiga qarab, sehrgarlar dunyosidagi kishilarning ham bir necha turga ajratilganini ko'rish mumkin:

1) aslzoda yoki toza qonli sehrgar (pure-blood) – ota-onasining ikkalasi ham sehrgarlar va bu holat ikki avlodda ketma-ket takrorlangan bo'lishi kerak (Malfoylar, Bleklar, Uizlilar oilasi);

¹Бобоев Т. Адабиётшуносликка кириш. Т.: 1980. 76-б.

2) chala zotli sehrgar (half-blood) – ota-onasidan faqat bittasi sehrgar, boshqasi esa magl (Voldemort, Severus Snape);

3) oddiy sehrgar – ota-onasining ikkalasida ham sehrgarlik qobiliyati mavjud boʻlmagan oddiy odamlar. Koʻpincha, Malfoylarga oʻxshagan aslzoda sehrgarlar ularni “maglvachchalar” (“mudblood”-nopok qonli) deb atashadi (Germiona Grenjer);

4) skvib – ikkalasi ham sehrgar boʻlgan ota-onadan tugʻilgan, ammo bunday qobiliyatga ega boʻlmagan bola. Skviblarda sehrgarlik qobiliyati umuman yoʻq, lekin ular sehrgarlik dunyosining barcha sir-asrorlarini ipidan ignasigacha bilishadi va oddiy odamlarning koʻzlari ilgʻamas narsalarni ham koʻra olishlari bilan magllardan farq qilishadi (Argus Filch, Arabella Figg).

Asarda xuddi biz yashayotgan dunyoda mavjud boʻlgan va bir necha asrlardan buyon insoniyatning eng ogʻriqli nuqtalaridan biri boʻlib kelgan millati, jinsi va irqiy mansubligiga koʻra kamsitish boshqacha koʻrinish olgan. Unda mabodo aslzoda sehrgarlar oilasida sehrgarlik qobiliyatiga ega boʻlmagan skvib tugʻilsa, uni oila shajarasi daraxtidan oʻchirib tashlashadi. Bu dunyoda yana shunday holga guvoh boʻlish mumkinki, Malfoy va Bleklar kabi baʼzi aslzoda sehrgar oilalar qolgan sehrgarlarni toza qonli emasligi uchun kamsitishadi, kezi kelganda chala zotlar, maglvachchalar deb haqorat qilishadi. Aslida bu haqoratlar sehrgarlar dunyosida qoʻllaniladigan eng ogʻir haqorat hisoblanadi, oʻzini haqiqiy sehrgar deb bilganlar bunday haqoratlarni umuman qoʻllashmaydi.

‘Mudblood’s a really foul name for someone who was Muggle-born – you know, non-magic parents. There are some wizards – like Malfoy’s family – who think they’re better than everyone else because they’re what people call pure-blood.’¹

Ammo hamma aslzoda sehrgarlar ham bunday kamsitishni oʻzlariga ep koʻrishmaydi. Uizlilar va Longbottomlar kabi aslzoda sehrgar oila vakillari oʻz doʻstlari va umuman sehrgarlar dunyosidagi hech bir sehrgarning oilasi va

¹Rowling, J.K. Harry Potter and the Chamber of Secrets. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 1998. p.89.

zotiga e'tibor qaratishmaydi. Insonning kuch-qudrati uning qaysi irq, millatga tegishli bo'lgani emas, balki bilim va tafakkuri bilan o'lganganidek, sehrgarning qobiliyati qay darajada kuchli ekanligi uning qaysi zotga tegishliligiga ham bog'liq emas. Masalan, Germiona Grenjer mag'llar oilasida tug'ilgan bo'lsa ham, uning qobiliyati ba'zi aslzoda sehrgarlardan ancha ustun.

...Look at Neville Longbottom – he's pure-blood and he can hardly stand a cauldron the right way up.'

*-'An' they haven't invented a spell our Hermione can't do,' said Hagrid proudly, making Hermione go a brilliant shade of magenta.'*¹

Xususan, zot tozaligi uchun kurashgan yovuz lord Voldemort va professor Severus Sneyp ham aslzoda sehrgar emas: ularning onalari sehrgar, otalari esa oddiy mag'l. Lekin ular buni tan olmaydi, aksincha, hammadan yashirishga urinishadi. Asarning so'nggi qismida ma'lum muddatga sehrgarlar dunyosida o'z nazoratini o'rnatgan yovuz lord Voldemort sehrgarlar dunyosining faqat asl qonli sehrgarlardan iborat bo'lishi uchun aslzoda afsungarlarga ustunlik beradi, qolgan sehrgarlar esa ta'qib ostiga olinadi. Vodemort va uning tarafdorlarining bunday qora qilmishlari insoniyat boshiga qanchadan qancha og'ir talofat va yo'qotishlarni solgan fashizm g'oyasining xuddi o'zi. Bunday yovuz g'oyalari oxir oqibat inqirozga yuz tutganiga tarixda guvoh bo'lganimizdek, asar so'ngida ham yovuzlik va uni qo'llab-quvvatlovchilar hech qachon ezgulik g'oyalari va uning tarafdorlari ustidan g'alaba o'rnatmasliklariga Rouling bizni yana bir bor ishontiradi.

Yozuvchilar bolalar uchun asar yozishar ekan, unda asosan bolalarni bosh qahramon qilib olishadi va turli voqealar-u sarguzashtlar shu bolalar bilan sodir bo'ladi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, kichik yoshli kitobxonlarni kattalarning hayoti tasvirlangan asarlardan ko'ra o'zlari bilan tengdosh bo'lgan bolalarning hayoti va ular bilan sodir bo'ladigan sarguzashtlar ko'proq qiziqtiradi. "Garri Potter" bolalar va o'smirlarga mo'ljallangan asar bo'lganligi sababi, uning voqealar rivojida asosiy o'rin tutuvchi qahramonlarining ko'pchiligini bolalar

¹The same source, the same page.

tashkil etishadi. Asarning o`ziga xos jihati shundaki, unda bolalar har bir kitobda bir yilga ulg`ayib borishadi. Kitobning har bir qismida ularning xarakteri va ko`rinishi ham o`z yoshiga munosib tarzda o`zgarishini kuzatish mumkin. Kitobning ilk “Garri Potter va falsafa toshi” qismida Garri Potter va uning do`stlari maktabga endigina kelgan o`n bir yoshli sodda bolakaylar bo`lishsa, asarning so`nggi “Garri Potter va ajal tuhfalari” qismida ular o`n yetti yoshli voyaga yetgan, tajribali sehrgarlarga aylanishadi. Bolalarning asarning har bir qismida yildan yilga ulg`ayib borishi esa asar qahramonlarining hayotiyiligini ta`minlashga xizmat qilgan.

Garri Potter. Asarda Garri Potter obrazi markaziy o`rinni egallaydi, buni kitobning yetti qismi ham Garri Potter nomi bilan boshlanishidan bilib olish qiyin emas. Garri Potter chaqaloqligidayoq ota-onasidan yetim qolgan sehrgar bola. Ammo sehrgarlarni jini suymaydigan xolasi Petunya va uning eri Vernon Dursllar qo`lida tarbiya topgan Garri o`n bir yoshigacha o`zining bunday qobiliyati borligidan butunlay bexabar edi. Yozuvchi uni qora sochli, ozg`indan kelgan, doim ko`zoynak taqib yuradigan oddiy bola sifatida tanishtiradi, lekin uni boshqalardan biroz bo`lsa-da ajratib turadigan va o`ziga ham eng yoqadigan belgisi bo`lib, bu ham bo`lsa peshonasidagi yashin zigzagiga o`xshash chandig`idir.

*Harry had a thin face, knobbly knees, black hair and bright-green eyes. He wore round glasses held together with a lot of Sellotape because of all the times Dudley had punched him on the nose. The only thing Harry liked about his own appearance was a very thin scar on his forehead which was shaped like a bolt of lightning.*¹

Dursllar o`z bolalari Dudlini qancha yaxshi ko`rib erkalatishsa, Garrini shunchalik yoqtirishmay, turtkilashardi. Shuning uchun Garri juda kamtar-kamsuqum bola bo`lib o`sdi. O`n bir yoshida Hogvarts sehrgarlik va afsungarlik maktabiga qabul qilingach, o`qishga borgan Garri sehrgarlar dunyosida juda mashhur ekanligidan xabar topadi. To`satdan kelgan mashhurlik Garrini

¹Rowling, J.K. Harry Potter and the Philosopher's stone. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 1997. p.20.

dovdiratib qo`ymaydi, aksincha unga bunday mashhurlik umuman yoqmaydi. Masalan, ikkinchi kitob “Garri Potter va maxfiy xona”da Garrining muxlisi bo`lgan birinchi bosqich o`quvchisi Kolin Kriv doim Garrini maqtab, har qanday vaziyatda uni suratga olishga harakat qiladi. Ammo hech qachon mashhurlikka intilmagan Garriga bu sira yoqmaydi. Bir necha marotaba Voldemort ustidan g`alaba qozongan, asar so`ngida uni butunlay mahv etib, sehrgarlar dunyosida tinchlik o`rnatgan Garri hech qachon o`z yutuqlarini tilga olmaydi.

‘Harry Potter is humble and modest,’ said Dobby reverently, his orb-like eyes aglow. ‘Harry Potter speaks not of his triumph over He Who Must Not Be Named.’¹

Aynan shu kitobda Garrining kamtarligi qora kuchlardan himoya fanining yangi o`qituvchisi Gilderoy Lokhartning manmanligi bilan qiyoslanadi. Professor Lokhart har bir gapda o`zini maqtab, qo`lga kiritgan yutuqlarini eslatib o`tsa, Garri biror marotaba o`zini maqtash tugul, unga aytilgan maqtovlarni eshitganda xuddi biror yomon ish yuz berganday uyatdan qizarib ketadi.

‘You could’ve fried an egg on your face’ said Ron. ‘You’d better hope Creevey doesn’t meet Ginny, they’ll be starting a Harry Potter fan club.’

‘Shut up,’ snapped Harry. The last thing he needed was for Lockhart to hear the phrase ‘Harry Potter fan club’.²

O`n bir yoshda maktabga kelganda qay darajada kamtar bo`lsa, Garri voyaga yetganda ham xuddi o`shanday kamtar-kamsuqumligicha qoladi.

Garri Potter obrazi ijobiy qahramon bo`lib, u qalbi toza, atrofda qilarga, ayniqsa, do`stlarga juda mehribon va kezi kelganda ular uchun jonini berishga ham tayyor. Albus Dambldor Garrining shu xususiyati uchun uni juda hurmat qiladi va qadrlaydi.

¹Rowling, J.K. Harry Potter and the Chamber of Secrets. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 1998. p.17.

²Rowling, J.K. Harry Potter and the Chamber of Secrets. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 1998. p.77.

*'You are protected, in short, by your ability to love!' said Dumbledore loudly. 'The only protection that can possibly work against the lure of power like Voldemort's! In spite of all the temptation you have endured, all the suffering, you remain pure of heart, just as pure as you were at the age of eleven, when you stared into a mirror that reflected your heart's desire, and it showed you only the way to thwart Lord Voldemort, and not immortality or riches.'*¹

Va aynan mana shu xususiyati uni Voldemort ustidan g'alaba qozonishga yordam bergan omillardan biri bo'ldi.

Bolalar tabiatan qiziquvchan qilib yaratilishgan, ularni biror narsa qiziqtirib qolsa, toki uning yechimini topmaguncha tinib-tinchimaydilar. Xuddi shu xususiyatni Garri Potterda ham uchratish mumkin. Hogvartsga qadam qo'ygan kunidan boshlab, u uchun yangilik bo'lgan bu olamning hamma narsasi Garriga qiziq tuyular edi. Unga qiziq tuyulgan voqealar, savollarga esa har doim javob topishga intilardi.

*Harry hesitated, thinking ... and then his curiosity got the better of him.*²

*Harry felt as though he ought to go, but his curiosity held him in his chair.*³

*Harry gazed at the Pensieve, curiosity welling inside him ...what was it that Snape was so keen to hide from Harry?*⁴

Bu intilish uni ko'p hollarda xavfli vaziyatlarga tushurib qo'ysa-da, aynan qiziquvchanlik Garrining aqlini charxlab, sehrgarlik tajribasining ortishiga yordam beradi. Asar voqealari rivojida Garrining qiziquvchanligi asosiy o'rin egallaydi, chunki Garri o'zini qiziqtirgan sirlar ortida nima yashiringanini bilish uchun ko'p sarguzashtlarni boshidan kechiradi va aynan shu sirlar uni har safar Voldemort bilan to'qnash keltiradi. Garri qiziquvchanligi sabab birinchi kitobda falsafa toshining yovuz lord qo'lga tushishidan asrab qoladi, ikkinchi kitobda esa Hogvartsda sodir bo'lgan mudhish voqealar sababini topadi, do'sti Hagridni

¹Rowling, J.K. Harry Potter and the Half-blood Prince. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 2005. p.477-478.

²Rowling, J.K. Harry Potter and the Goblet of Fire. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 2000. p.405.

³Source 3, p.523.

⁴Rowling, J.K. Harry Potter and the Order of the Phoenix. U– London: Bloomsbury Publishing PLC, 2003. p.563.

tuhmatdan saqlab qolib, Ronning singlisi Jinini o`limdan qutqaradi. Shunday qilib, har safar Hogvarts va sehrgarlar dunyosida yashiringan sirlar ortidagi yovuzlik Garri va uning qiziquvchanligi sabab o`z yechimini topadi.

Rouling Garri obrazining yanada ishonarliroq, shuningdek, bolalar va o`smirlar tabiatiga yaqinroq bo`lishi uchun uni qusurlardan xoli, hech qachon xatoga yo`l qo`ymaydigan qahramon qilib tasvirlamaydi. Kezi kelganda u ham kichik xatolarga yo`l qo`yadi, qiziqishi ustunlik qilib, o`rnatilgan tartiblarni son-sanoqsiz marta buzadi. Buning oqibatida esa ba`zi paytlarda jazoga tortilsa, ba`zi paytlarda mudhish voqealarning oldini olgani uchun mukofotlanadi. Aslida u qonun-qoidalarni shunchaki sho`xlik qilib yoki mensimaganligi uchun emas, vaziyat aynan shuni taqozo etgani uchun buzishga majbur bo`ladi.

Garri obrazining o`ziga xos xususiyatlaridan yana biri uning jasurligidir. Garri hatto mushkul vaziyatlarda ham o`zini yo`qotib qo`ymay, xavfga tik boqadi. Xuddi shuning uchun saralovchi qalpoq Garrini Griffindor kollejiga tayinladi. Griffindor kollejining ramzi sher bo`lib, u mardlik va jasorat nishonasi hisoblanardi.

*You might belong in Gryffindor,
Where dwell the brave at heart,
Their daring, nerve and chivalry
Set Gryffindors apart;*¹

Har qanday bolalar asarlarida, ayniqsa, sarguzashtga boy kitoblarda bosh qahramondan talab etiladigan xususiyat bu jasurlikdir. Faqatgina qo`rqmas va jasoratli qahramonlargina sarguzashtlar izidan borishadi. Agar Garrining qahramoni tavakkal qilmaydigan, jazoga tortilish xavfi bo`lganda faqat o`zini o`ylab, yovuzlikka qarshi kurashmaganda hech qachon kitobxon bolalar qalbida o`ziga nisbatan mehr uyg`ota olmas edi.

Garri kuchli obrazlardan biri, uning kuchi faqat sehrgarlik qobiliyatida emas, balki uning ruhiyati hamda irodasida. Chaqaloqligida ota-onasidan ayrilib, keyin esa cho`qintirgan otasi Sirius Blek, Remus Lupin va Albus Dambldordek

¹Rowling, J.K. Harry Potter and the Philosopher's stone. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 1997. p.88.

yaqin insonlarini yo`qotish musibati Garri shaxsiyatining yanada kuchli bo`lishiga xizmat qildi. Hatto o`lim xavfiga duch kelganda ham, uning irodasini hech nima buka olmaydi. Birinchi marta o`n bir yoshida Voldemort bilan yuzma-yuz kelib, hayotiga o`lim xavf solgan vaziyatda ham Garri hali bola ekaniga va yovuz lord uni o`ldirishi muqarrarligiga qaramay, falsafa toshini himoya qiladi.

Asar davomida yozuvchi ezgulik tarafdori bo`lgan Garri va yovuz lord Voldemort obrazlarining bir-biriga o`xshash taraflarini tasvirlab boradi. Voldemortni yengadigan bola tug`ilganini eshitgan lord uni izlashga tushadi. Aslida aytilgan sanada ikkita chaqaloq tug`ilgan edi: biri Garri Potter, ikkinchisi esa Nevil Longbottom. Ammo Voldemort hech ikkilanmay bu bolaning Garri ekaniga ishonib, uni o`ldirish payiga tushadi. Sababi u Garrida o`ziga o`xshash jihatni ko`radi: ularning ikkalasi ham yarim-qonli (chala zot) sehrgarlar edi. Voldemort qarg`ishidan omon qolgan Garrida keyinroq uning qobiliyatlari namoyon bo`la boshlaydi. Ammo ularning yovuzlik va ezgulik tarafida ekanlaridan tashqari ikki asosiy jihat Garri va Voldemortni ajratib turardi. Birinchisi, Garrining qalbida Voldemort hech qachon his qilmagan mehr-muhabbat tuyg`ulari bor edi:

‘So, when the prophecy says that I’ll have “power the Dark Lord knows not”, it just means – love?’ asked Harry, feeling a little let down.

‘Yes – just love,’ said Dumbledore.¹

Ikkinchidan esa, butun umri davomida abadiy tirik qolishga harakat qilgan Voldemortdan farq qilgan holda Garri o`limdan qo`rqmasligi, aksincha, yaqinlarining omon qolishi uchun u hatto o`limga ham rozi bo`lardi.

‘You won’t be able to kill any of them, ever again. Don’t you get it? I was ready to die to stop you hurting these people –’

‘But you did not!’

‘– I meant to, and that’s what did it. I’ve done what my mother did.’²

¹Rowling, J.K. Harry Potter and the Half-blood Prince. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 2005. p.476.

²Rowling, J.K. Harry Potter and the Deathly Hallows. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 2007. p.591.

Garridagi aynan mana shu ikki xususiyat Voldemortning mag'lubiyatiga sabab bo'ldi.

Ron Uizli. Asardagi yana bir ijobiy bolalar obrazlaridan biri Ron Uizlidir. Ronning ko'rinishini ilk bor muallif quyidagicha tasvirlaydi:

*He was tall, thin and gangling, with freckles, big hands and feet and a long nose.*¹

Ron qahramonini mumtoz "qadrdon do'st" obrazi turiga kiritish mumkin. Bunday qahramonlar asosan o'zidan ko'ra ko'rkam, kuchli va jasurroq, ko'plab qahramonliklar ko'rsata oladigan asosiy obrazga sherik qilib olinadi, lekin o'zlari hech qachon biror tashabbus ko'rsatmaydilar. Kinoda bo'ladimi, adabiyotdami bunday obrazlar kulgili va ochiqko'ngil, ma'lum ma'noda sodda qilib tasvirlanadi. Ron ham butun asar davomida Garrining barcha sarguzashtlarida unga sherik bo'ladi, ammo har bir ishni Garrining yo'lbo'shchiligida bajaradi.

Ron har doim kulgili va noqulay vaziyatlarga tushib yuradigan ko'ngli ochiq bola obrazi, chunki u aqlidan ko'ra ko'proq hissiyotlariga tayanib ish ko'radi. Lekin oilasi yoki do'stlari masalasiga kelganda Rondan jiddiy bolani topish mushkul. Uning oilasi qadimgi aslzoda sehrgarlardan bo'lsa ham, u hech qachon do'st tanlaganda ularning qaysi oilaga mansubligiga e'tibor bermaydi. Garri va Germionaning aslzoda sehrgarlardan emasligi uni qiziqtirmaydi, chunki Ron uchun eng ahamiyatlisi bu do'stlikdir. Mabodo uning do'stlarini haqorat qilishsa, Ron chidab tura olmaydi, tezda sehrli tayoqchasi yordamida bunday yomonlarni jazolashga harakat qiladi:

'No one asked your opinion, you filthy little Mudblood,' he spat.

*'How dare you!' and Ron plunged his hand into his robes, pulled out his wand, yelling, 'You'll pay for that one, Malfoy!' and pointed it furiously under Flint's arm at Malfoy's face.*²

Natijada esa har doimgidek kulgili vaziyatga tushib qoladi:

¹Rowling, J.K. Harry Potter and the Philosopher's stone. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 1997. p.70.

²Rowling, J.K. Harry Potter and the Chamber of Secrets. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 1998. p.86-87.

*A loud bang echoed around the stadium and a jet of green light shot out of the wrong end of Ron's wand, hitting him in the stomach and sending him reeling backwards onto the grass.*¹

Asarning har bir qismida Ronning xarakterida o'sishni ko'rish mumkin, u avvalgidan ko'ra qobiliyatliroq, mustaqil va kerak bo'lganda hal qiluvchi qarorlar qabul qilishga qodir obrazga aylanadi. Ammo ungacha bo'lgan davrda Ron ko'p sinovlarga duch keladi. Ronning qahramoni Garridek og'ir yo'qotishlarni boshidan kechirmagan bo'lsa ham, oilasining iqtisodiy nochorligi, doim akalarining soyasida qolib ketishi va unga faqat ulardan qolgan narsalar tegishi sabab, Ron ruhan ezilar va o'ziga ishonchi ham past edi. Shuning uchun u har doim hammaga o'zining nimaga qodirligini ko'rsatishga urinadi. Ba'zida Ronning qalbida hasad ham uyg'onib, uni yanada qiyin ahvolga solardi. "Garri Potter va falsafa toshi"da qalb tubida eng yashirin bo'lgan va hatto egasi ham ba'zida bexabar bo'lgan istaklarni ko'rsatuvchi "ko'ngildagi orzular oynasi" (The mirror of erised)ga qaragan Garri faqat ota-onasini ko'rgan bo'lsa, Ron yolg'iz o'zini, ko'kragida akasi Billning nishoni va qo'lida kviddich jamoasi kubogi bilan ko'radi. Ronning o'zi ham bilmaydigan orzusi akalaridan o'zib ketish va kviddich jamoasi kaptani bo'lib, shon-shuhratga erishish edi.

'Can you see all your family standing around you?'

'No – I'm alone – but I'm different – I look older – and I'm Head Boy!'

'What?'

*'I am – I'm wearing the badge like Bill used to – and I'm holding the House Cup and the Quidditch Cup – I'm Quidditch captain, too!'*²

"Garri Potter va olovli jom" qismida "Uch sehrgar musobaqasi" ("The triwizard tournament")da voyaga yetmaganiga qaramay, Garrining ham ishtirok etishini eshitgan Ron Garri har qancha o'z nomzodini qo'ymaganini aytmasin unga ishonmaydi. Ronning o'zi qachondir shu musobaqada qatnashish orzusida edi, ammo Garrining hali 14 yoshda bo'la turib, unda qatnashish huquqini

¹The same source, p.87.

²Rowling, J.K. Harry Potter and the Philosopher's stone. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 1997. p.155.

qo`lga kiritgani va Ronga unda ishtirok etish uchun o`z nomini olovli jomga tashlagani haqida biror marta gapirmagani uning g`azabini keltiradi. Aslida Garrini hech qanday olovli jom ham, musobaqa-yu shuhrat ham qiziqitirmasdi. Ronga buni har qancha tushuntirishga urinmasin, hasad va g`azab Ronning ko`zlarini ko`r qilib qo`ygandi. Ammo Garrining musobaqa davomida o`lim bilan yuzma-yuz kelishini his qilgach, unga olovli jomdan ko`ra Garri muhimligini anglab yetadi.

Ron ruhiyatidagi bunday inqirozlarni asar davomida yana bir necha bor kuzatish mumkin. Asarning so`nggi “Garri Potter va ajal tuhfalari” qismida Ronning ichki konflikti eng yuqori nuqtaga chiqadi. Lord Voldemort joni yashiringan krestrajni yo`q qilish chorasini topish uchun yo`lga chiqqan Garri, Ron va Germiona ma`lum muddat krestrajning sehrli ta`siri ostida qolishadi. Krestrajni Ron bo`yniga taqqanida, ayniqsa uning ruhiyatiga qattiq ta`sir qila boshlaydi. Krestraj uni ushlagan va taqqan insonning qalbidagi eng yomon hislari va qo`rquvini kuchaytirardi. Krestraj Ron qalbida Garriga nisbatan g`azab, hasad kabi tuyg`ularni uyg`otadi va natijada kitobxonlarni hayratga solgan ish sodir bo`ladi: Ron krestrajni tashlab, Garri va Germionani tark etadi. Lekin krestraj ta`siridan xalos bo`lgach, o`z qilmishidan uyaladi, uning ichki ziddiyatida ezgulik qalbidagi yovuzlikni yengadi. U yana do`stlari orasiga qaytadi, ammo Ron endi hissiyotlarini jilovlab olgan, do`stlik u uchun hamma narsadan ahamiyatli ekanini tushunib yetgan, xuddi bir necha yilga ulg`ayib qolgan Ronga aylangandi. Aynan shu sabab u Garrini o`limdan qutqaradi, faqat mard va qalbi toza sehrgar qo`lga kiritishi mumkin bo`lgan Griffindor qilichini topib, krestrajni yo`q qiladi.

Ron ba`zi vaqtlarda shunaqa ziddiyatlarga sabab bo`lib turishiga qaramay, o`zining hazil-mutoyibalari, o`ng`aysiz ahvolga tushib qolishi bilan asarda yumoristik muhitni ushlab turishga xizmat qilgan. Ron keyinchalik ham Garri hayotidagi eng asosiy insonlardan biri bo`lib qoladi.

Germiona Grenjer. Garri Potter “uchligi”ning yana bir qahramoni Germiona Grenjer obrazidir. Rouling Germiona qiyofasida ma’lum ma’noda o`zini tasvirlaganini aytib o`tgan.¹

Asar boshida o`zini mag`rur va bilag`on tutadigan, o`zini xuddi do`stga muhtoj emasdek tutadigan Germiona nafaqat kitobxonlarda, balki Garri va Ronda ham yomon taassurot qoldiradi. Ron uni shunchalik yoqtirmas ediki, har safar unga to`qnash kelganda “uning fe`liga hech kim chidolmaydi, u xuddi qo`rqinchli tushga o`xshaydi” deb izoh beradi.

*‘It’s no wonder no one can stand her,’ he said to Harry as they pushed their way into the crowded corridor. ‘She’s a nightmare, honestly.’*²

Garri va Ron bir kun kelib Germiona ularning eng yaqin do`stlariga aylanishi va ular hayotida muhim ahamiyat kasb etishini xayollariga ham keltira olishmaydi.

Asar boshida kitobxon Germiona shaxsini to`liq bilib oldim, u hammaning asabiga tegib yuradigan bilag`on qiz obrazi degan xayolga boradi. Ammo Rouling obrazlar tasvirida hech qachon oddiy usuldan foydalanmaydi. Uning yaxshi bo`lib tuyulgan qahramonlari aslida yovuz, avvaliga yomon taassurot qoldirganlari esa aslida yaxshi qahramon bo`lib chiqadi. Ilk bor Germiona haqida uyg`ongan taassurot ham aslida uning asl shaxsiyatiga mos emasdi. Rouling Germionaning xususiyatlarini sekin-astalik bilan ko`rsatib boradi. Germionaning sehrgarlik qobiliyati va bilimga chanqoqligi, afsunlarni tez yod olib, ularni to`g`ri qo`llay olishi bilan Hogvartsdagi eng yaxshi o`quvchilar qatoridan joy oladi. Aslida Germionaning o`zini bunday tutishiga sabab bor edi, u magllar oilasida tug`ilgan sehrgar ekanligi uchun uni Hogvartsda kamsitishlarini bilardi. Shuning uchun birovlarining ko`magiga qarab qolmaslik va magllardan tug`ilgan sehrgar aslzoda sehrgar oila farzandlaridan ko`ra ancha bilimli bo`lishi mumkinligini isbotlash uchun o`zini shunday tutardi.

¹Feldman, Roxanne. The Truth about Harry. School Library Journal, September 1999.

²Rowling, J.K. Harry Potter and the Philosopher’s stone. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 1997. p.127.

Birinchi kitobda o`rtalaridagi tushunmovchilik sabab vujudga kelgan bolalarcha adovatga qaramay, Garri va Ron Germionani xavfli trolldan qutqarishgach, Germionada ularga nisbatan hurmat va do`stlik tuyg`ulari uyg`onadi. Shu paytdan boshlab Germionaning boshqa xususiyatlari ham ko`zga tashlanib boradi: hech qachon maktab qonun-qoidalarini buzmagani Germiona do`stlariga yordam berish uchun ularni buzadi. Bu esa Germionadek tartibli, qoida buzishni gunohdek qabul qiladigan qiz uchun katta jasoratga teng edi. Aslida Germionada ham bolalarcha qiziqish hamma narsadan ustunlik qiladi, shuning uchun Garrining hech bir sarguzashti uning ishtirokisiz o`tmaydi. Endi kitobxon uchun Germiona obrazi butunlay yangicha ko`rinish ola boshlaydi. Germiona ham do`stlariga yordam berish uchun har qanday vaziyatda ham doimo ular tarafida turadi.

Germiona va Ronning fe'l-atvori xuddi magnitning ikki qutbiga o`xshaydi: Ronni faqat hissiyotlari boshqarsa, Germiona, aksincha, faqat aqliga bo`ysunadi. Asarda ikki obrazning xususiyatlari yana teskari ravishda o`zgarib boradi: vaqt o`tib Ron faqat hissiyot emas, aqlga ham quloq tutishni o`rganadi, Germiona esa o`rnatilgan qoidalarga ko`r-ko`rona ergashib, faqat aqlning aytganini emas, ba`zida qalb amriga ham bo`ysunish kerakligini tushunib yetadi.

Germionaning o`ziga xos jihatlaridan biri shundaki, u uchala do`stning ichida har doim aqliga tayanib ish ko`radigan, mantiqiy fikrlash darajasi kuchli va juda zukko qiz. Chunki ko`p mushkul hollarda o`zini yo`qotib qo`ymay, to`g`ri g`oya va fikrlar faqat Germionadan chiqardi. Masalan, "Maxfiy xona"da qiyofa o`zgartiruvchi ichimlik tayyorlab, Malfoydan sirlarni bilib olish Germionaning g`oyasi edi:

'Well, if you two are going to chicken out, fine. I don't want to break rules, you know. I think threatening Muggle-borns is far worse than brewing up a difficult potion. But if you don't want to find out ...'

*'I never thought I'd see the day when you'd be persuading us to break rules,' said Ron.*¹

“Qaqnus ordeni”da esa u qat’iyan ma’n etilgan bo’lishiga qaramay, Damblдор armiyasini tuzish g’oyasi bilan chiqadi.

Germionaning do’stlariga sadoqati uning kuchli tomonlaridan biridir. “Ajal tuhfalari” qismida Garrining Damblдорga, Ronning esa Garriga nisbatan ishonchi so`na boshlaganda faqatgina Germiona Damblдор va Garriga avvalgidek ishonadi, shuning uchun hatto Ron Garrini tashlab ketganda ham u Garri bilan qoladi.

Shuni aytib o`tish kerakki, Germionaning o`ziga ishonchi juda yuqori, ko`p hollarda boshqa o`quvchilar uni tushunmay kekkaygan bilag`on, maglvachcha deb haqorat qilsa ham, Germiona ularning bunday haqoratlaridan o`kinib o`tiradigan va boshqalarga yoqish uchun o`zini tuzatishga urinmaydi. U har qanday bosimlarga qarshi tura oladigan kuchli iroda va o`ziga ishonch kuchli obrazdir.

Drako Malfoy. “Garri Potter”dagi yana bir qiziqarli bolalar obrazlaridan biri bu Drako Malfoy obrazidir. Drako Garri obraziga butunlay teskari: u aslzoda sehrgarlar oilasi va slizerinlarga mansub yovuzlik tarafdori bo`lgan obraz. Xuddi Garridek, Malfoy ham ota-onasi izidan borishga va ularga munosib bo`lishga harakat qiladi, ammo uning ota-onasi yovuzlik uchun xizmat qilishgani sabab Malfoyga qilayotgan ishlari to`g`ri degan fikr shakllangan. Oilasiga munosib bo`lish uchun u har qanday pastkashlikdan ham toymaydi, hech bir kurashda halol yo`l bilan emas, balki qing`ir-qiyshiq usullarni qo`llaydi. Drako ilk bor Hogvartsga kelishganda Garriga kambag`al Ronni emas, balki aslzoda oilaga mansub o`zidek bola bilan do`stlashishni maslahat bergan paytdan boshlab Garri bilan oralarida adovat boshlanadi. U o`ta kalondimog`, aslzoda va sehrgarlar oilasidan bo`lmaganlarni har safar haqorat qilishga urinadi.

Rouling kitobning ilk besh qismida Drakoning barcha qusurlarini tasvirlab, asardagi eng yovuz bola obrazi kitobxonlar ongida shakllanib ulgurgan

¹Rowling, J.K. Harry Potter and the Chamber of Secrets. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 1998. p.125.

bir vaqtda oltinchi kitobga kelib Drakoning qahramonida asta-sekinlik bilan o'zgarishlar kuzatila boshlanadi, unda ham ichki ziddiyat, ichki kurash avj olayotgandi. Drako Garrini ko'rganida avvalgidek kamsitishga harakat qilmay qo'ygandi, uning xayoli qaysidir muammo bilan band edi. Butunlay yovuz lord Voldemort tomonida bo'lishiga qaramay, uning buyuradigan yovuz vazifalarini bajarish Drako uchun og'irlik qiladi, ba'zida esa hatto ularni bajarishning uddasidan chiqmasdi. Unga topshirilgan eng katta vazifa Albus Dambldorni o'ldirish buyurilganda, Drako bu vazifaga ancha tayyorgarlik ko'rishiga qaramay, Dambldor bilan yuzma-yuz to'qnashuvda uni o'ldira olmaydi. Albatta, bu holat barcha kitobxonlarni hayratga soladi, chunki asar boshidan xuddi shu nuqtagacha bo'lgan davrda hamma Drako Malfoy hech qanday yovuzlikdan tap tortmaydi, u Dambldorni o'ldirishga qodir degan xulosaga keladi. Ammo kitobxonlarni hayratga solgan holda, Drako Dambldorni o'ldirishni paysalga solib, uning bergan savollariga javob berib vaqtni o'tkazadi. Dambldor Drako uni o'ldirolmasligiga ishonchi komil edi, chunki insoniylik tuyg'ulari Drakoning yuragini hali ham tark etmaganini bilardi.

'I'm not afraid!' snarled Malfoy, though he still made no move to hurt Dumbledore. 'It's you who should be scared!'

*'But why? I don't think you will kill me, Draco. Killing is not nearly as easy as the innocent believe.'*¹

Drakoning barcha yovuzliklari aslida otasiga taqlidan qilingan ishlar bo'lib, u buni keyinroq anglab boradi. Drako boshida yovuzliklarni o'z xohishi va tashabbusi bilan amalga oshirgan bo'lsa, keyin bu ishlar unga malol kela boshlaydi, ammo ortga qaytishga ham yo'l yo'q, chunki endi u oilasini saqlab qolish uchun yovuzlarga yordam berishga majbur. Asarning boshida u aniq yovuzlik tarafida bo'lgan bo'lsa, asar so'nggiga kelib Drakoning aslida yovuzlikmi yoki ezgulik tarafida ekanini aytish qiyin, sababi u hech qachon ikki tarafga ham to'lig'icha o'tib ketmaydi. Asarning yakunlovchi bobida Rouling

¹Rowling, J.K. Harry Potter and the Half-blood Prince. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 2005. p.547-548.

oz bo`lsa-da Drakoni ham tilga oladi. O`g`lini Hogvartsga kuzatishga chiqqan Drako Garri va Ronga ko`zi tushib, ular bilan uzoqdan salomlashadi. Bu ular do`st bo`lib ketishmagan bo`lishsa ham, dushmanchilik va adovatga barham berilganidan dalolat beradi.

II bob bo`yicha xulosalar

Xulosa qilib aytganda, adiba Joan Rouling tasvirlagan “Garri Potter” dunyosi voqealari sehrli dunyoda sodir bo`lsa ham, uning qahramonlari kitobxon har kuni uchratishi mumkin bo`lgan kulgili, aqlli, ba`zan sodda, ba`zan o`qishga mukkasidan ketsa, ba`zida o`qishni xushlamaydigan, ba`zan qoidalarni buzib, sho`xlik va qiziqishlari bilan turli vaziyatlarga tushib turadigan bolalar-u o`smirlar. Ularni oddiy bolalardan faqatgina sehrgalik qobiliyatlarigina ajratib turadi, xuddi shuning uchun ham ular kitobxonga jonli va ishonarli bo`lib taassurot qoldiradi.

Rouling yaratgan bolalar obrazlari tahlil qilinar ekan, ularning barchasi bir-birida uchramaydigan fe`l-atvor va xususiyatlarga ega rang-barang obrazlar ekaniga guvoh bo`lish mumkin. Asar boshida ularning gap-so`zlarida bolalarga xos soddalik, yangi hayotning sir-asrorlariga bo`lgan qiziqish, o`z jahllari va hissiyotlarini jilovlay olmay, janjallarga sabab bo`lishlari tasvirlangan bo`lsa, asarning har bir qismida qahramonlarning nutqi, o`zini tutishi o`zgarib, oldlariga qo`yilgan vazifa hamda ularning shaxsi kamol topib boraveradi. Ma`lum vaziyatlarda esa ularning hatto o`zlari ham bilmagan qirralari namoyon bo`lib kitobxonni hayratga soladi. Masalan, ikkinchi darajali qahramon Nevil Longbottom obrazini oladigan bo`lsak, Hogvartsga endi kelganda butun maktabda Nevildek no`noq bolani topish mushkul edi. Har qadamida biror ish turg`uzib yuradigan hardamxayol Nevil, aslida aslzoda sehrgarlar oilasida tug`ilgan bo`lsa ham, uning qobiliyati maqtashga arzigulik emasdi. Kitobning har bir keying qismiga o`tganda Nevilning qobiliyati va shaxsiy fazilatleri yuksalib boradi, boshida qo`rqoq bo`lgan Nevil keyinroq Voldemortga qarshi

tuzilgan Damldor armiyasining yetakchilaridan biriga aylanadi. Asarning so'nggida esa u Hogvartsda professor bo'lib ishlayotgani ma'lum bo'ladi.

Shunday qilib, Rouling yaratgan hech bir obraz bir qolipda qotib qolmagan, aksincha rivojlanib boradigan bir-biridan qiziqarli obrazlardir.

FOR AUTHOR USE ONLY

III BOB. “GARRI POTTER” ASARIDA USLUB VA UNING ASAR RIVOJIDAGI ROLI

3.1. “Garri Potter” asarida antonomasiyalarning qoʻllanilishi va ularning asardagi oʻrni

“Garri Potter” asarini tahlil qilar ekanmiz, unda Rouling yaratgan parallel olam, undagi qahramonlar va voqealarning oʻziga xosligi bilan birga yozuvchining antonomasiya (stilistik vositalarning kishi ismida qoʻllanilishi)ni sanʼat darajasiga olib chiqqaniga guvoh boʻlamiz.

Bu stilistik vositadan asosan badiiy uslubda keng qoʻllaniladi. “What’s in a name” nomli maqolasida R.Davis shunday yozadi: “In deciding on names for his characters, an author has an unfair advantage over other parents. He knows so much better how his child will turn out. When Saul Bellow named Augie March, he had already conceived a hero restlessly on the move, marching ahead with august ideas of himself. Henry James saw in Adam Verver of “The Golden Bowl” a self-made American, sprung from the soil, full of verve and zest for life. In choosing names like ‘Murd-stone’, ‘Scrooge’, and ‘Gradgrind’, Dickens was being even more obvious”¹

Stilistika fanining koʻzga koʻringan vakillaridan biri I.R.Galperinning taʼkidlashicha, antonomasiya soʻzning mantiqiy va atoqli (nominal) maʼnolari oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni ifodalaydi. Antonomasiyaning stilistik vazifasi shundan iboratki, u insonning asosiy, oʻziga xos xususiyatini belgilaydi, atoqli ot yordamida shaxsning qanaqa ekanligini koʻrsatib, unga tavsif beradi.² Masalan, Bayronning “Don Juan” asaridan keltirilgan quyidagi parchada ham ushbu stilistik vosita qoʻllanilgan:

“Society is now one polished horde,
Form'd of two mighty tribes, the Bores and Bored.”

Bu yerda “The Bores” va “Bored” antonomasiyaga misol boʻlib, yozuvchi qahramonlarning asosiy tabiatidan kelib chiqib, ularni shu ismlar bilan ataydi.

¹Galperin.I.R. Stylistics. – Moscow: Vysʼshaya shkola, 1981. p.165.

²The same source, p.164.

Rouling “Garri Potter” asarida ham antonomasiya san’atini o`rinli qo`llagan. Yozuvchi qahramonlar ismini shunchaki tanlamagan, aksincha, asarni o`qigan sayin har bir qahramonning ismi o`ziga nechog`lik darajada mos ekanligiga guvoh bo`lish mumkin. “Garri Potter”dagi ismlar faqat ingliz ismlari bo`lmay, ularning ma’lum qismi yunon-rim mifologiyasi, lotin, qadimgi anglo-sakson, skandinav, fransuz va boshqa xalqlar tillaridan olingan.

Asar bosh qahramoni Garrining ismi qadimgi skandinav tilidan fransuz va ingliz tillariga kirib kelgan bo`lib, u “Henry” ismining ingliz tili talaffuzida keyinchalik o`zgargan shaklidir. “Harry” - “kuchli boshqaruvchi” degan ma’nolarni anglatadi.¹ Rouling bosh qahramon uchun aynan bu ma’noni anglatuvchi ismni bejizga tanlamagan. Chunki butun sehrgarlar olamini qo`rquvda ushlab turgan yovuz Voldemortga qarshi tura olish, unga qarshi kuch to`plash va uni yengish faqatgina eng kuchli sehrgarning qo`lidan keladigan vazifa ekani va Garri bu ishni kitobning har bir qismida muvaffaqiyatli amalga oshirganini hisobga oladigan bo`lsak, uning ismi asarda u bajaradigan vazifaga to`la mosligini ko`rishimiz mumkin. Garri nafaqat sehrgarlik tomondan, balki ruhiy va axloqiy jihatdan ham kuchli qahramon, u qiyinchiliklarga bardosh bera oladigan, maqtovlar va turli nayranglarga uchmaydigan kuchli iroda sohibi. Voldemort kabi yovuz sehrgarlar hukmronlik va abadiy hayot havasi bilan ko`pgina razilliklarga qo`l urgan bir paytda, Garri hech qachon sehrdan yomon maqsadda foydalanmaydi, o`z qobiliyatini suiiste’mol qilmaydi. Aynan mana shu sabab “Falsafa toshi”da Garri dushmani ustidan g`alaba qozonadi:

“Harry: ‘How did I get the Stone out of the Mirror?’

Dumbledore: You see, only one who wanted to find the Stone – find it, but not use it – would be able to get it, otherwise they’d just see themselves making gold or drinking Elixir of Life.’²

Shuningdek, Garrida boshqaruvchilik qobiliyati ham shakllangan bo`lib, u boshqalarni o`ziga ishontirib, ularga yo`lboshchilik qila oladi. Shuning uchun

¹Carrington, Rachel. Baby Names Book: Getting Started on Choosing the Perfect Baby Names and Meanings. Speedy Publishing LLC, 2012.

²Rowling, J.K. Harry Potter and the Philosopher’s stone. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 1997. p.217.

ham “Qaqnus ordeni” qismida Damblodor armiyasini tuzganda ko`pchilik o`quvchilar uning izidan ergashishadi va armiya safiga kirishadi. “Shahzoda tilsimi” qismida ustozi Damblodorni uning ko`z o`ngida o`ldirishgach va yo`lboshchisidan ayrilganiga qaramay, Garri o`zini yo`qotib qo`ymaydi, balki yovuzlarga bo`lgan g`azabi uning yanada kuchli bo`lishiga yordam beradi.

Garri Potterning eng yaqin do`sti Ronald Uizli asar davomida Ronald deb emas, balki Ron deb tilga olinadi. Ronald ismi qadimgi shotland tilidan kelib chiqqan bo`lib, “qirolning yordamchisi” degan ma`noni anglatadi.<sup>1</sup> Ron asosiy qahramon hisoblansa-da, uning asardagi vazifasi Garri Potternikidek katta va muhim emas, balki har doim zarur vaziyatlarda Garri Potterga yordam berishdir. Rouling Ronni akalari soyasida qolib ketgan, har doim turli ko`ngilsizliklarga uchrab yuradigan kulgili bola sifatida tasvirlanadi. Ronning sehgargalik qobiliyati ham Garri yoki Germionanikidek kuchli emas, balki shuning uchun ismi to`liq emas qisqartirilgan holda ishlatilgan bo`lishi mumkin. Biroq Ron Garri va Germionani qiyinchiliklardan olib chiqqan vaziyatlar ham ancha. Masalan, asarning so`nggi “Garri Potter va ajal tuhfası” qismida Ron do`sti Garrining hayotini saqlab qoladi:

*“Harry stared at Ron, half expecting him to have disappeared every time he lost sight of him, and yet he had to be real: He had just dived into the pool, he had saved Harry’s life.”*²

Ronning oilasi nomi Uizli tanlovida ham Rouling antonomasiya san`atini mohirona qo`llagan. Uizli so`zi ‘weasel’ so`zidan kelib chiqqan bo`lib,<sup>3</sup> latcha deb tarjima qilinadi. Latcha – o`zi kichikroq yirtqich jonzot bo`lib, ko`pchilik ularni omadsiz va jahldor jonivor deb hisoblab, yoqtirishmaydi. Ammo Rouling fikricha, latchalar odamlar o`ylaganlaridek yomon jonzotlar emas.⁴ Xuddi

¹Carrington, Rachel. Baby Names Book: Getting Started on Choosing the Perfect Baby Names and Meanings. Speedy Publishing LLC, 2012.

²Rowling, J.K. Harry Potter and the Deathly Hallows. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 2007. p.301-302.

³Wolosky, Shira. The Riddles of Harry Potter: Secret Passages and Interpretive Quests. US: Palgrave Macmillan, 2010. p-14.

⁴Fenske, Claudia. Muggles, Monsters and Magicians: A Literary Analysis of the Harry Potter Series. Frankfurt: Peter Lang Publishing, 2008. p.185.

shunga o`xshab, Uizlilar oilasini ham ko`pchilik aslzoda sehrgar oilalar yoqtirishmaydi, ularning kambag`alligi sabab past nazar bilan qarashadi.

Asarning yana bir asosiy qahramonlaridan biri, barcha qismlarda Garriga yovuz lord ustidan g`alaba qozonishga yordam bergan eng aqlli qahramon qiz – Germiona Grenjer. Germiona ismi qadimgi yunon mifologiyasida sehrgarlar avliyosi hisoblangan “Hermione” ismidan olingan. Asarda Germiona o`zining bilimdonligi, afsunlarni to`g`ri qo`llay olish qobiliyati bilan ajralib turadi. Mushkul vaziyatlarda Garri doim Germionaning yordamiga tayanadi. Grenjer esa o`rta asr fransuz tilidan kelib chiqqan bo`lib, “Granger”- “oddiy inson”, “dehqon” ma`nosini anglatgan.¹ Qizning familiyasi uning ijtimoiy kelib chiqishiga ishora bo`lib, romanning “Garri Potter va sirli xona” qismida Germiona Grenjerning magllar oilasida dunyoga kelgani ma`lum bo`ladi. Magllar oilasidan chiqqan afsungarlar ba`zi yovuzlik tarafdorlari bo`lgan aslzoda sehrgarlar tomonidan kamsitilib, “mudblood” ya`ni “nopok qonli” deb murojaat qilinadi. Germionaga nisbatan ham asarning ba`zi qismlarida shu so`zni ishlatishadi:

1. *I got the idea of poisoning the mead from the Mudblood Granger, as well, I heard her talking in the library about Filch not recognising potions ...*

*‘Please do not use that offensive word in front of me,’ said Dumbledore.*²

2. *‘Hermione Granger,’*” Scabior was saying, *“the Mudblood who is known to be travelling with ‘Harry Potter.*”³

Shunga qaramay, Germiona sehrgarlar orasida eng kuchlilari safidan o`rin oladi.

Albus Dambldor - Hogvarts maktabi direktori, Garrining maktabdagi eng yaqin ustozlaridan biri, shuningdek asardagi yoshi eng katta qahramon. Albus ismi lotin tilidan kelib chiqqan bo`lib, “oq”, “donolik” degan ma`nolarni

¹Pickering, David. The Penguin Pocket Dictionary of Babies’ Names. UK: Penguin, 2005.

²Rowling, J.K. Harry Potter and the Half-blood Prince. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 2005. p.550-551.

³Rowling, J.K. Harry Potter and the Deathly Hallows. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 2007. p.366.

anglatadi.¹ Oq rang barcha xalqlarda poklik, soflik, yaxshilik ramzi sanaladi. Albus Dambldor doim Garriga to`g`ri yo`lni ko`rsatib turadigan nur, ma`naviy yo`lboshchi qahramondir. Asarda ism uning yoshi, ko`rinishi, hayotiy tajribasi va ezgulik tarafdori ekaniga ishora bo`lib, Dambldor tasviri quyidagicha beriladi:

*“...He was tall, thin and very old, judging by the silver of his hair and beard, which were both long enough to tuck into his belt... His blue eyes were light, bright and sparkling behind half-moon spectacles and ...this man’s name was Albus Dumbledore.”*²

Dambldor Hogvartsda va sehrgarlar dunyosidagi yoshi ulug` sehrgarlardan bo`lgani sababli, uning sehrgarlik va hayotiy tajribasi ustun edi. U Garriga har doim to`g`ri yo`l ko`rsatib turar, o`z maslahatlari bilan Garrini qiziqtirgan muammolarga javob topishga yordam berardi. Aynan Dambldor ishlab chiqqan reja asosida ish ko`rilgani uchun oxir-oqibat Voldemortni mag`lubiyatga uchratishga muvaffaq bo`lishadi, bu yo`lda Dambldor hatto o`z hayotini ham qurbon qiladi.

Asarning boshidan so`ngiga qadar butun sehrgarlar olamini qo`rquvga solgan qahramon Voldemort ismi nafaqat qahramonning tabiatini, balki uning qismatini ham ko`rsatib turadi. “Mort” so`zi ko`pgina Yevropa tillarida “o`lim yoki yovuz” degan ma`noni anglatadi. Fransuz tilidan “vol-de-mort” birikmasi “o`limdan qochish” deb tarjima qilinadi.³ “Valde” so`zi Lotin tilida “buyuk, kuchli, dahshatli” ma`nolarini berishini hisobga olsak, “Voldemort”ni “dahshatli o`lim” deb tarjima qilsa ham bo`ladi. Voldemort eng kuchli, shu bilan birga eng yovuz sehrgar bo`lib, maqsadi yo`liga to`g`anoq bo`lganlarni dahshatli o`lim bilan jazolaydi, shuning uchun sehrgarlar uning ismini tilga olishga qo`rqishadi.

¹Wolosky, Shira. The Riddles of Harry Potter: Secret Passages and Interpretive Quests. US: Palgrave Macmillan, 2010. p.14.

²Rowling, J.K. Harry Potter and the Philosopher’s stone. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 1997. p.12.

³Source 1, p.1.

*I fashioned myself a new name, a name I knew wizards everywhere would one day fear to speak, when I had become the greatest sorcerer in the world!’*¹

Voldemort haqida gapirganda ko'pchilik sehrgarlar *Lord V. you-know-who* (siz o'sha ismini biladigan lord), *He-Who-Must-Not-Be-Named* (ismini tilga olish ta'qiqlangan) yoki *the Dark Lord* ya'ni, yovuz(qora) lord deb murojaat qilishadi. Birinchi kitobda, hatto Garri ham Voldemortni yuqoridagi so'zlardan biri bilan ataganda, Dambldor unga: “Hammani o'z ismi bilan chaqir. Ismdan qo'rquv uning egasiga bo'lgan qo'rquvni yanada kuchaytiradi”,- deb ta'kidlaydi.

- ‘Sir?’ said Harry. ‘I’ve been thinking ... Sir – even if the Stone’s gone, Vol– ... I mean, You-Know-Who –’

*- ‘Call him Voldemort, Harry. Always use the proper name for things. Fear of a name increases fear of the thing itself.’*²

Voldemortning ismi faqat uning kuch-qudratini emas, balki uning bu yovuz qilmishlari ortida qanday maqsad turganini ham ko'rsatadi. Hammani o'lim dahshati bilan qo'rqitgan Voldemortning o'zi ham aslida o'limdan qochardi, uning asl niyati qay yo'l bilan bo'lmasin abadiy tirik qolish usulini topish edi. Voldemort aslida yovuz sehrgarning o'z ismi bo'lmay, balki u shu ism orqali boshqalar qalbiga dahshat va qo'rquv solish uchun uni tanlagandi. Voldemortning asl ismi Tom Ridl bo'lib, kitobxon va hatto Garri ham bundan “Garri Potter va maxfiy xona” qismida xabar topishadi. Tom so'zi “Tomas” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “egizak” degan ma'noni anglatadi.³ Bu o'rinda ham Rouling yovuz lord uchun uning xususiyatini ochuvchi ism tanlagan, chunki yovuz lord bolaligidanoq ikki xil shaxsiyatga ega edi: o'qituvchilarga o'zini aqlli, bilimli va qoidalarga rioya qiladigan o'quvchi qilib ko'rsatar, yuragidagi yovuzlikni esa hech kimga sezdirmasdi. “Maxfiy xona” qismida Garri sehrlangan kundalik topib oladi va kundalik sohibi o'zini unga Tom Ridl

¹Rowling, J.K. Harry Potter and the Chamber of Secrets. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 1998. p.231.

²Rowling, J.K. Harry Potter and the Philosopher's stone. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 1997. p.215-216.

³Carrington, Rachel. Baby Names Book: Getting Started on Choosing the Perfect Baby Names and Meanings. Speedy Publishing LLC, 2012

deb tanishtiradi. Kundalik Tomning xotiralarini o`z ichiga olgan bo`lib, Tom uning ayrim qismlari bilan Garrini ham tanishtiradi. Tom bilan faqat kundalik orqali muloqot qilgan Garri uchun Tom Ridl haqiqatan ham xuddi topishmoqdek edi. Har bir topishmoqning vaqti kelib javobi topilganidek, asar so`ngiga kelib Tom Ridlning shaxsi ham, uning yovuz maqsadi ham ayon bo`ladi.

He pulled Harry's wand from his pocket and began to trace it through the air, writing three shimmering words:

TOM MARVOLO RIDDLE

Then he waved the wand once, and the letters of his name rearranged themselves:

*I AM LORD VOLDEMORT*¹

Tasavvur qilaylik, Rouling Voldemortni Robert, Jon, Uilyam, Charlz kabi boshqa ismlar bilan nomlaganda qahramonlar va kitobxonlarda Voldemort haqida noxush his-tuyg`u, qo`rquv uyg`ota olishi dargumon edi.

Drako Malfoy qahramonining ismini tahlil qilar ekanmiz, Rouling ushbu qahramon ismi tanlovida ham antonomasiyaning imkoniyatlaridan samarali foydalanganiga guvoh bo`lamiz. Drako so`zi lotin tilidan kelib chiqqan bo`lib, "ajdarho" degan ma`noni anglatadi.² Ko`pchilik xalq og`zaki namunasi bo`lmish ertaklardan ma`lumki, ajdarholar ko`pincha og`zidan o`t purkab turuvchi yovuz mavjudot sifatida tasvirlanadi. Drako ham har safar to`qnash kelganda Garri va uning do`stlari Ron hamda Germionani haqorat qilish payida yuradi. Uning biror kishi haqida yaxshi gap aytganini eshitish ham amri mahol. Drakoning yana bir xususiyati shundaki, u uchun ota-onasi yuqori o`rin egallashadi, shuning uchun ham oilasi saqlab kelayotgan qadriyatlar, garchi ular yovuzlikka xizmat qilsa ham, Drako uchun ham amal qilinishi muhim bo`lgan zaruriyat hisoblanadi, ularni saqlab qolish va himoya qilish uchun kurashadi. Drakoning familiyasi

¹Rowling, J.K. Harry Potter and the Chamber of Secrets. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 1998. p.231.

²Agarwal, N., Agarwal, Ch. Friends and Foes of Harry Potter: Names Decoded. Texas World Publishing, 2005. p.67.

Malfoy ko`pgina Yevropa tillarida “yomon taqdir” ma’nosini anglatadi.<sup>1</sup> Agar Drakoning hayoti orqali tahlil qiladigan bo`lsak, haqiqatan ham uni baxtsiz taqdir sohibi deyish mumkin. Chunki yovuzlik tarafdori bo`lgan oilada dunyoga kelib, hali aqli kirmay turib ota-onasining yo`lini davom ettirish mas’uliyati bilan o`sgan Drako ko`p hollarda qilayotgan ishlarining pastkashlik va yovuzlik ekanini sezmasdi. Yaxshi va yomonni farqlay boshlaganda esa, oilasining tirik qolishi uchun endi ortga chekinishga yo`l yo`qligini tushunadi.

Asardagi yana bir qahramon Luna Lavgudning ismi ham uning ko`rinishi va tabiatiga juda mos qilib tanlangan. “Luna” lotin, rus va ko`pgina boshqa Yevropa tillarida “oy” ma’nosini anglatadi. Bu ism, birinchidan, qizning tashqi ko`rinishiga aynan mos keladi:

*She had straggly, waistlength, dirty blonde hair, very pale eyebrows and protuberant eyes that gave her a permanently surprised look.*²

Ikkinchidan esa, uning gap-so`zlari va xatti-harakatlari xuddi oyparast odamnikidek taassurot qoldirishini hisobga olsak, Lunaning ismi jismiga mos ekaniga guvoh bo`lamiz:

*The girl gave off an aura of distinct dottiness. Perhaps it was the fact that she had stuck her wand behind her left ear for safekeeping, or that she had chosen to wear a necklace of Butterbeer corks, or that she was reading a magazine upside-down.*³

Lunaning biroz g`alati fikr yuritishi ko`pchilik o`quvchilarni undan o`zlarini olib qochishlariga sabab bo`lardi. U ko`p hollarda o`zini xuddi uyqusiragan odamdek tutishiga qaramay, Lunaning aqliy qobiliyati ko`pchilik sehrgarlar havas qilsa arzigulik darajada edi. Lunaning familiyasi “Lavgud” (Lovegood) ham qizning ko`pchilikda uchramaydigan xususiyatiga ishora bo`lib, Luna har qanday yomon vaziyatlarda ham ruhan tushkunlikka tushmaydi, aksincha, atrofdagilarga ham bunday vaziyatlarda taskin berishga urinadi, ularni

¹Nel, Philip. J.K.Rowling’s Harry Potter Novels: A Reader’s Guide. (illustrated ed.). NY: Continuum, 2001.p-16.

²Rowling, J.K. Harry Potter and the Order of the Phoenix. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 2003. p.168.

³The same source, the same page.

yorug` kun kelishiga, har qanday ishning yaxshi tomonini ko`rishga undaydi. Eng kuchli irodali kishilarni ham aqldan ozdiradigan sehrgarlar qamoqxonasi Azkabanga yuborilganini eshitishganda, Garri Lunaning bunday ruhiy qiyinchilikni osonlik bilan yengib, hatto o`sha yerda ham o`z mashg`ulotlari bilan ovunib yurganiga ishonchi komil edi. Aslida Malfoylar qo`rg`onida to`rt oy davomida hibsda ushlab turilgan Luna xonadoshi janob Olivanderning tushkunlikka tushmasligi uchun unga har doim tasalli berib, uning ko`nglini ko`tarib turardi.

'I'm going to miss you, Mr Ollivander,' said Luna, approaching the old man.

*'And I you, my dear,' said Ollivander, patting her on the shoulder. 'You were an inexpressible comfort to me in that terrible place.'*¹

Bundan tashqari Luna Lavgud sinfdoshlari tomonidan doim masxara qilinib, ba`zida “looney”, ya`ni telba deb murojaat qilinsa ham, u hech qachon bunday munosabatlarga e`tibor bermaydi, ustidan kulgan yoki buyumlarini sindirib, ularni yashirib qo`yadiganlardan o`ch olishga harakat qilmaydi. Chunki birovga dushmanchilik qilish Lunaning tabiatiga yot jihat edi.

“Garri Potter”ning hamma o`quvchilariga yaxshi tanish bo`lgan professor Severus Sneyptning ismi ham uning ko`rinishi-yu tabiatiga aynan mos keladi. Uning ismi ingliz tilida “shafqatsiz, qattiqqo`l, qo`pol” kabi ma`nolarni berib, Professor Sneypt ko`pchilik Hogvarts o`quvchilari o`rtasida qattiqqo`l va shafqatsizligi bilan mashhur.

*Cruel, sarcastic and disliked by everybody except the students from his own house (Slytherin), Snape taught Potions*²

Professorning ko`rinishi ham yoqimsiz hissiyot uyg`otsa, bu uning fe`l-atvori oldida hech nima bo`lmay qoladi. U o`quvchilarga, ayniqsa o`zi yoqtirmaganlarga hamisha yomon munosabatda bo`ladi, shuning uchun uning darslarida har doim tartibga rioya qilinadi. Nevil Longbottomning hayotda eng qo`rqqani professor Sneypt ekani ma`lum bo`lganda ham, ko`pchilik o`quvchilar

¹Rowling, J.K. Harry Potter and the Deathly Hallows. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 2007. p.414.

²Rowling, J.K. Harry Potter and the Chamber of Secrets. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 1998. p.61.

bundan hayratga tushishmaydi. Shuningdek, u yovuz Voldemortning eng ishongan yordamchilaridan biri bo'lib, ko'p jinoyatlarida unga yordam beradi.

Professor Minerva Makgonagol nomi “donolik”, “aql” kabi ma'nolarni anglatib, professor Makgonagol timsolida ham xuddi shu xususiyatlarni ko'rish mumkin.¹ U Hogvartsda bir necha yildan buyon dars berib kelayotgan professorlardan biri bo'lib, o'zining o'tkir zehni, kuchli sehrgarlik qobiliyati orqali Griffindor kolleji rahbari darajasiga ko'tarilgan. Shuningdek, ko'pgina sehrgarlarda mavjud bo'lmagan animaglik qobiliyatiga ega sehrgarlardan biridir. Rim mifologiyasida Minerva aql, san'at va urush xudosi sanalgan. Professor Minerva Makgonagol ham xavfli vaziyatlarda tezda talabalari himoyasiga chog'lanadi, yovuzlikka guvoh bo'lgan joyda u hech qachon unga qarshi kurashmay turolmaydi. Voldemortga qarshi tuzilgan feniks jamiyati a'zolari ichida professor Makgonagolning ham borligi uning kurashuvchanlik xususiyatini namoyon etadi.

3.2. Asarda xalq og'zaki ijodiga yondashuv

“Xalq donoligi”, “xalq ijodiyoti” ma'nolarini anglatuvchi “folklor” so'zi ilk bor 1846-yilda ishlatilgan bo'lsa-da, uning ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaladi. Folklorning alohida sohasi bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar ko'pincha folklor deganda o'zi o'rganuvchi sohani nazarda tutadi. Jumladan, tasviriy san'atni o'rganadigan olim folklor deganda, naqsh san'atini nazarda tutadi. Xoreograf esa xalq raqsini, musiqashunos xalq kuylarini, folklorshunos hamda adabiyotshunoslar esa xalq og'zaki ijodini nazarda tutib ish olib borishadi.²

Xalq og'zaki badiiy ijodi har bir xalqning asrlar davomida ijodkor farzandlari tomonidan yaratilgan madaniy merosidir. Bu meros maqollar, matallar, latifalar, qo'shiqlar, ertaklar, dostonlar va boshqa janrlardan iborat hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodi o'zining rang-barangligi, yuksak g'oyalar bilan

¹Agarwal, N., Agarwal, Ch. Friends and Foes of Harry Potter: Names Decoded. Texas World Publishing, 2005. p.33.

²Madayev O., Sobitova T. Xalq o'zaki poetik ijodi. – Toshkent, Sharq, 2010. 13-bet.

yo`g`rilganligi, xalq turmushi, mehnati, xullas, xalq hayotining barcha tomonlari bilan uzviy bog`liqligi bilan ham g`oyatda e`tiborlidir.

Aytish joizki, xalq og`zaki ijodi yoki, boshqacha qilib aytganda, folklor butun dunyo yozuvchilari tez-tez murojaat qilib turadigan, ularni ilhomlantiradigan asosiy manbalardan biridir. Qahramonlar nutqida maqollarning ishlatilishi, ertaklar, afsona va dostonlarning ma`lum bir motivlarini asar uchun asos qilib olish badiiy adabiyotda tez-tez uchrab turadigan hodisadir. Yozuvchi Joan Rouling ham "Garri Potter"ni yozish jarayonida xalq og`zaki ijodi namunalaridan kerakli o`rinlarda unumli foydalanganiga guvoh bo`lishimiz mumkin. Rouling yaratgan sehrli va xayoliy olamda hamma narsa: qahramonlardan tortib turli mavjudotlargacha haqiqiy real olamdagidan farq qiladi. Shu xususiyati bilan "Garri Potter" ma`lum ma`noda xalq og`zaki ijodi namunasi bo`lgan ertak va afsonalarni yodga soladi.

Muallifning o`zi ham "Garri Potter"ni yozish jarayonida ingliz xalq og`zaki ijodiga bevosita murojaat qilganini ta`kidlab o`tgan:

*"I've taken horrible liberties with folklore and mythology, but I'm quite unashamed about that, because British folklore and British mythology is a totally bastard mythology. You know, we've been invaded by people, we've appropriated their gods, we've taken their mythical creatures, and we've soldered them all together to make, what I would say, is one of the richest folklores in the world, because it's so varied. So I feel no compunction about borrowing from that freely, but adding a few things of my own."*¹

Rouling yuqorida aytib o`tganidek, ingliz folklori dunyodagi eng boy xalq og`zaki ijodlaridan biri hisoblanadi. Sababi, necha ming yillardan buyon bir necha istilochilik yurishlari qurboni bo`lgan Britaniya xalq og`zaki ijodi istilochi xalqlar folklori va mifologiyasi hisobiga boyib kelgan. Britaniya yerlarini bosib olgan har bir xalq uning aholisi o`rtasida o`zining xudolari haqidagi qarashlarni va mifologik qahramonlarini yoyishga harakat qilgan. Shuning uchun ingliz

¹Granjer, John. Harry Potter's Bookshelf: The Great Books Behind the Hogwarts Adventures. New York: Berkley Publishing Group, 2009. Rolling, James Haywood Jr. Swarm Intelligence: What Nature Teaches Us About Shaping creative Leadership. New York: Palgrave Macmillan, 2013.p-140.

folklorida boshqa xalqlar ogʻzaki ijodida uchraydigan afsonaviy voqealar hamda turli mifologik jonzotlarning uchrashi tabiiydir.

Yevropa xalqlari folklorida haybatli qora it timsoli ham koʻp uchraydi. Ingliz xalqining bir necha asrdan buyon avloddan avlodga oʻtib kelayotgan ertak va hikoyalarida “Black Shuck” (“qora jundor”) nomi bilan yuritilib, koʻpincha u yonib turuvchi qip-qizil koʻzli, haddan tashqari katta qora it sifatida tasvirlanadi. Shoir Martin Nyuel afsonaviy it tasvirini quyidagicha keltiradi:

*As big as a calf, with eyes like burning coals, he pads silently beside the traveler on lonely country roads. Always keeping pace, he never drops back but simply seems to melt away. In some parts of the region, they believe that if you see old Shuck, then you or someone in your family will die. But best not to see him.*¹

Britaniyaning turli hududlarida tarqalgan ertaklarda bu itni koʻrgan insonning oʻzi yoki qarindoshlaridan biri vafot etadi, degan qarashlar mavjud. “Black Shuck” obrazining xalq ogʻzaki ijodidan badiiy adabiyotga ham kirib kelganini Artur Konan Doylning “Sherlok Xolms” asarida “Baskervillar iti” degan qismida koʻrishimiz mumkin. Rouling ham ushbu afsonaviy mavjudot obrazidan asarning uchinchi kitobi “Garri Potter va Azkaban mahbusi”da samarali foydalangan. Asarda Garri bir necha marotaba yonib turgan koʻzli, kattakon qora itga duch keladi. Garrining doʻsti Ron afsonadan kelib chiqqan holda buni oʻlim ramzi boʻlishi mumkin, deb taʼbirlaydi:

‘Harry,’ he said, in a low, serious voice, ‘you haven’t seen a great black dog anywhere, have you?’

‘Yeah, I have,’ said Harry. ‘I saw one the night I left the Dursleys.’ Ron let his fork fall with a clatter.

‘Probably a stray,’ said Hermione calmly. Ron looked at Hermione as though she had gone mad. ‘Hermione, if Harry’s seen a Grim, that’s – that’s

¹ www.jardinepress.co.uk/books/Bshuck.html

*bad,' he said. 'My – my Uncle Bilius saw one and – and he died twenty-four hours later!'*¹

Bunda Rouling arvochday kezib yuruvchi bahaybat qora it afsonasini to`g`ridan-to`gri keltirmay, qahramonlar nutqi orqali ularning bu afsonadan xabardor ekanliklarini ko`rsatib bergan.

Oldindan yozilgan taqdir yoki bola tug`ilmasdan oldin uning taqdirini bashorat qilish motivlari grek mifologiyasida keng tarqalgan. Buyuk yunon fojianavisi Sofoklning barchamizga yaxshi tanish bo`lgan, syujeti yunon xalqida mashhur bo`lgan rivoyatlardan olingan “Shoh Edip” asari xuddi shu motiv asosiga qurilgan.

Bundan tashqari, bashorat motivi faqatgina mifologiyada uchramay, balki xristian dini payg`ambari Iso Masihning tug`ilishi haqidagi rivoyatlarda ham o`z aksini topgan. Ularga ko`ra, Iso tug`ilmasdan oldin payg`ambarning dunyoga kelishi va unga hamma, hatto qirollar ham bo`ysunishi bashorat qilinadi. O`z taxtidan ayrilishni istamagan yahudiy qiroli Irod uni o`ldirishga harakat qilgan. Xuddi mana shu motivni Rouling kitobning beshinchi qismi “Garri Potter va qaqnus ordeni”da qo`llaydi. Aynan shu qismda Garri yillar davomida izlagan savoliga javob topadi, ya`ni nega yovuz lord Voldemort Garrini chaqaloqligida o`ldirmoqchi bo`lganligi sababini bilib oladi. Beshinchi kitob so`ngida keltirilgan “Lost prophecy” (“Yo`qolgan bashorat”) bobida voqealar Garri tug`ilishidan biroz oldin, professor Tretonining bashorati sabab boshlangani kitobxonga ma`lum bo`ladi. Bashorat quyidagi mazmunda edi:

*‘The one with the power to vanquish the Dark Lord approaches ...born to those who have thrice defied him, born as the seventh month dies ... and the Dark Lord will mark him as his equal, but he will have power the Dark Lord knows not ... and either must die at the hand of the other for neither can live while the other survives ... the one with the power to vanquish the Dark Lord will be born as the seventh month dies ...’*²

¹Rowling, J.K. Harry Potter and the Prisoner of Azkaban. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 1999. p.85.

²Rowling, J.K. Harry Potter and the Order of the Phoenix. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 2003. p.741.

Bashoratdan xabar topgan Voldemort iyul oyi oxirida dunyoga kelgan bola, ya'ni Garrini o'ldirishga harakat qiladi, ammo uning bu urinishi bashoratda aytilganidek samarasiz bo'lib chiqadi.

*'Voldemort tried to kill you when you were a child because of a prophecy made shortly before your birth. He knew the prophecy had been made, though he did not know its full contents. He set out to kill you when you were still a baby, believing he was fulfilling the terms of the prophecy.'*¹

Ko'rinib turganidek, "Garri Potter"da ham ikki qahramon o'rtasidagi hayot-mamot to'qnashuviga asosiy sababchi bashorat bo'lgan.

Roulingning xalq og'zaki ijodiga murojaatini yovuz sehrgar Voldemortning o'z jonini bir necha qismga bo'lib, ularni yettita buyumda saqlashi orqali ham bilib olish mumkin. Ko'pchilikka bu holat rus xalqining "O'lmas Koshshay" haqidagi ertaklarini eslatib yuboradi. Ammo bu faqat rus xalq ertaklarida uchramay, Jeyms Frezer fikricha, ruhni tanadan tashqarida saqlash (external soul) konsepsiyasi Hindistondan tortib Afrikagacha bo'lgan hududlarida yashovchi juda ko'p xalqlar folklorida o'z ifodasini topgan. Ko'p xalqlarning folklorini o'rganib chiqqan Frezer o'z kitobida nemis, rus, hind, grek, transilvan, ingliz va boshqa bir qator afrika xalqlarning shu motiv mavjud bo'lgan ertak va afsonalaridan misollar keltiradi. Ularning barchasida bunday buyumlar va unda saqlanayotgan jon yo'q qilinmaguncha, ruhi tanasidan tashqarida bo'lgan qahramonlarni o'ldirishning iloji yo'q. Bu ertak va afsonalarda voqealar hamda qahramonlar o'z jonlarini yashirgan buyumlari bir-biridan farq qilsa ham, ularda qahramonlarning yovuzlik tarafdorlari ekanligi va ularning sehr-jodudan xabardor ekanligi umumiy xususiyat hisoblanadi.² Xuddi mana shu konsepsiyani Rouling badiiy sayqallab, ma'lum o'zgartirishlar o'zgartirgan holda, yovuz sehrgar Voldemort timsolida ochib beradi. Folklordagi motivdan farq qilib, Voldemort o'z jonini bitta emas, balki yettita buyum, ya'ni krestrajda saqlaydi. Krestraj – yovuz sehrgarlar abadiy tiriklikka erishish uchun o'z jonlarining

¹The same source, p.740.

²Frazer, James. The Golden Bough: A Study of Magic and Religion. The Floating Press, 2009. p.1559-1584.

ma'lum qismini yashiradigan kuchli sehrlangan buyum. Bunday buyum faqatgina yovuz sehrgarlar tomonidan yaratilishining sababi shundaki, krestraj hosil qilish va ruhni unga yashirish uchun albatta eng oliy jinoyatni amalga oshirish, ya'ni qotillikka qo'l urish kerak bo'ladi.

'How do you split your soul?'

*'By an act of evil – the supreme act of evil. By committing murder. Killing rips the soul apart. The wizard intent upon creating a Horcrux would use the damage to his advantage'*¹

Bundan tashqari, yana bir farqli tomoni shundaki, ertaklarda qahramonning ruhi saqlanadigan buyum osonlik bilan yo'q qilinsa, "Garri Potter"da Voldemort joni saqlanadigan krestrajlarni yo'q qilish juda mashaqqatli ish hisoblanadi. Buni har qanday sehrgar amalga oshira olmaydi. Rouling ushbu o'zgartirishlar orqali Voldemortning bir tomondan, juda kuchli sehrgar ekanligini, boshqa tomondan esa, naqadar yovuz ekanini ko'rsatib beradi.

Yunon mifologiyasidagi Kerber yoki Serber – Aid (o'lim xudosi)ning marhumlar saltanati chiqish eshigini qo'riqlovchi uch boshli afsonaviy it. Ushbu mifologik mavjudot "Garri Potter va faylasuflar toshi" qismida ham tilga olingan:

*They were looking straight into the eyes of a monstrous dog, a dog which filled the whole space between ceiling and floor. It had three heads. Three pairs of rolling, mad eyes; three noses, twitching and quivering in their direction; three drooling mouths, saliva hanging in slippery ropes from yellowish fangs.*²

Rouling qo'llagan bu uch boshli it obrazi ham asarda Kreberga o'xshab qo'riqlash vazifasini bajaradi, ammo undan farqli o'laroq, faylasuflar toshiga eltadigan yo'lga chiqish eshigini qo'riqlaydi.

Shuningdek, "Garri Potter"ning 7 qismida ham ajdarho eng ko'p uchraydigan obrazlardan biridir. Ajdarho xalq og'zaki ijodining shunday

¹Rowling, J.K. Harry Potter and the Half-blood Prince. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 2005. p.465.

²Rowling, J.K. Harry Potter and the Philosopher's stone. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 1997. p.119.

obraziki, u nafaqat Yevropa yoki ingliz folklorida, balki o'zbek xalq ijodi namunalarida ham tez-tez tilga olinadi.

Bundan tashqari, asarda uchraydigan boggartlar, goblinlar, kentavrlar, elflar, qaqnus qushi, vasilisk iloni va shunga o'xshash ko'pgina jonzotlar muallifning badiiy to'qimasi mahsuli emas, balki xalq og'zaki ijodidan olingan obrazlardir.

Ingliz folkloriga xos boggartlar tavsifi "Dictionary of English folklore" lug'atida quyadigicha beriladi: *'Boggart' was a general term for any supernatural being which frightened people, whether indoors or out, without specifying whether it is ghost, malicious fairy, or minor demon.*¹

Boggartlar aniq shaklga ega bo'lmagan, insonlarni qo'rqitadigan g'ayrioddiy mavjudotlardir. Rouling asarning "Garri Potter va Azkaban mahbusi" qismida ilk bor boggartlar haqida ma'lumot beradi. "Garri Potter"da boggartlar ro'parasida turgan inson qo'rqadigan narsa ko'rinishiga o'ta olish xususiyatiga ega.

'Boggarts like dark, enclosed spaces,' said Professor Lupin. 'Wardrobes, the gap beneath beds, the cupboards under sinks – I once met one that had lodged itself in a grandfather clock.

'So, the first question we must ask ourselves is, what is a Boggart?'

*'It's a shape-shifter,' she said. 'It can take the shape of whatever it thinks will frighten us most.'*²

Boggartlar hatto inson ko'rinishiga ham o'ta olishadi. Masalan, boggartlardan qo'rqmaslik va ularning shaklini kulgili tusga kiritishni mashq qilish darsida boggart Nevilning ro'parasida professor Sneyp qiyofasiga kiradi. Chunki inson yuragining tub-tubidagi qo'rquvni his oladigan boggart Nevilning eng kuchli qo'rquvi professor Sneyp bilan bog'liqligini sezadi.

'Right, Neville,' said Professor Lupin. 'First things first: what would you say is the thing that frightens you most in the world?'

¹Simpson, J., Roud, S. A dictionary of English Folklore. – New York: Oxford University Press Inc., 2010. p.29.

²Rowling, J.K. Harry Potter and the Prisoner of Azkaban. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 1999. p.101.

*Neville looked around rather wildly, as though begging someone to help him, then said, in barely more than a whisper, 'Professor Snape.'*¹

Germionaga duch kelganda boggartlar buyum, inson yoki jonivor emas, balki ma'lum bir vaziyat tusiga kiradi.

Hermione did everything perfectly until she reached the trunk with the Boggart in it. After about a minute inside it, she burst out again, screaming.

'Hermione!' said Lupin, startled. *'What's the matter?'*

'P-P-Professor McGonagall!' Hermione gasped, pointing into the trunk. *'Sh-she said I'd failed everything!'*²

Deyarli barcha xalqlarda boyqushlar haqida turli afsona va asotirlar mavjud. Ba'zi afsonalarga ko'ra ular o'lim va yovuzlik ramzi sanalsa, Yevropa mifologiyasi asoslaridan biri bo'lgan grek mifologiyasiga ko'ra, boyqush bashorat yetkazuvchi va donolik ramzi hisoblanadi. Donolik xudosi Afina ham ko'pincha qo'lida boyqush tutgan holda tasvirlangan. Boyqushlar "Garri Potter"da eng ko'p uchraydigan jonzotlar bo'lib, har bir sehrgar oila xat tashishda boyqushlardan foydalanishadi. Muallif necha asrlar davomida insoniyat uchun xat tashuvchilik vazifasini o'tagan kabutarlarni emas, balki aynan boyqushlarni bu vazifa uchun bejizga tanlamagan.

Masalan, asarda deyarli har bir qahramonning o'z xat tashuvchi boyqushlari bor. Kitobning birinchi "Garri Potter va falsafa toshi" kitobida Xogvarts sehrgarlar va afsungarlar maktabiga qabul qilingan har bir o'quvchi o'zi bilan bitta jonivor olib kelishi so'ralganda, Hagrid Garriga boyqush sovg'a qiladi. Asar so'ngiga qadar u Garrining asosiy yordamchisi va yolg'iz qolganda uni tinglaydigan sirdoshi bo'lib qoladi. Garrining boyqushi Hedvig juda ziyrak jonivor bo'lib, u hatto manzili ko'rsatilmagan xatlarni ham o'z egalariга yetkaza oladi. "Azkaban mahbusi" qismida Dursllar bilan bo'lgan mojaro sabab uylan ketishga qaror qilgan Garri Sehrgarlik ishlari vazirligi tomonidan band qilingan

¹The same source, p.102.

²The same source, p.234.

mehmonxonaga kirib kelganda, mehmonxona xizmatchisi Garrining boyqushi besh daqiqa oldin yetib kelganini aytadi.

*'Very smart owl you've got there,' chuckled Tom. 'Arrived about five minutes after you did.'*¹

Nafaqat Garrining, balki boshqa qahramonlarning boyqushlari ham juda ziyrak va aqlli ekani asarning ko'p o'rinlarida tasvirlab o'tilgan.

Rouling o'zi aytib o'tganidek, asarga kiritgan xalq og'zaki ijodiga tegishli ertak va afsona voqealari, shuningdek, mifologik mavjudotlarni aynan aslicha emas, balki ma'lum bir o'zgartirishlar bilan badiiy sayqallagan holda tasvirlagan.

III bob bo'yicha xulosalar

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ism tanlashda va shu ismni obrazlar hayoti va taqdiri bilan bog'lashda Rouling iqtidori beqiyos. U mifologiya, tarix, bir necha xorijiy tillar va boshqa fanlarni bog'lab shunday ismlar tanlaganki, asar jahon bolalari tomonidan mutolaa qilinganda bir xil xulosa, bir xil fikr chiqishiga olib keladi, hech bir qahramonning o'rni boshqasini bilan chalkashib ketmaydi. Bu g'aroyib ismlarsiz asar hozirgidek muvaffaqiyatga erishib, barcha yoshdagi kitobxonlar uchun sevimli asarga aylana olmasdi.

Shuningdek, Roulingning asar voqealari uchun ingliz xalqining boy va tarixiy folkloridan foydalangani asarning badiiy salohiyatini ko'targan bo'lsa ko'targanki, ammo also kamaytirgan emas. Xalq og'zaki ijodi orqali kitobxon bolalarga yaqindan tanish bo'lgan afsonaviy jonotlar va voqealarning yangicha tasviri va talqini asarning mashhur bo'lishiga sabab bo'lgan unsurlardan biri bo'lgan bo'lsa ajab emas.

¹Rowling, J.K. Harry Potter and the Prisoner of Azkaban. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 1999. p.44.

XULOSA

Bolalar adabiyoti dunyo adabiyotining boy va koʻzga koʻringan qismi boʻlib, uning koʻpgina namunalari bolalar va oʻsmirlar bilan birga, katta yoshli kitobxonlarni ham oʻziga jalb qilib kelmoqda. Angliya bolalar adabiyotining tarixiy taraqqiyoti va “Garri Potter” asari vujudga kelguncha bu adabiyotning bosib oʻtgan yoʻli, Roulingning ijod namunasi tadqiqot davomida tahlil qilingach, quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Bolalar adabiyoti tarixiga nazar tashlaydigan boʻlsak, bundan 4-5 asrlar ilgari uning kattalar adabiyotidan mustaqil boʻlmagan adabiyot sifatida mavjud boʻlganiga guvoh boʻlishimiz mumkin. Chunki avvalgi asrlarda bolalarga boʻlgan munosabat va “bolalik” tushunchalari haqida hech kim bosh qotirib koʻrmagan boʻlsa, romantizmning kurtak otishi va romantik yozuvchilarning bolalikka ham yangicha nigoh bilan qarashlari kishilar ongida bolalikning boshqa davrlardan farq qilishi haqidagi tasavvurni paydo qildi. Natijada esa, sekinlik bilan kattalarning bolalar va bolalikka boʻlgan munosabatlarini ham oʻzgartirib yubordi.

Harvey Darton oʻz asarlarida Angliyada bolalar adabiyoti XVIII asrlarda vujudga kelgani haqida yozadi. Bu asrgacha boʻlgan muddatda bolalar kattalarga moʻljallangan asarlarni oʻqishgan boʻlishsa, XVIII asrdan boshlab aynan bolalarga moʻljallab asar va hikoya yozish rivojlanib bordi. Buning barobarida esa, bolalar kitoblarini chop etish uchun maxsus nashriyotlar va bu ish bilan shugʻullanuvchi tijorat ham asta-sekinlik bilan vujudga kela boshladi. Vaqt oʻtishi bilan, bolalarga moʻljallangan kitoblarning koʻrinishi, hajmi, hattoki, mazmuni ham yangicha tus ola boshladi. Avvaliga bolalar adabiyoti mavzu va janr jihatdan oʻzgargan boʻlsa, keyinroq kitobxonlar ham qizlar va oʻgʻil bolalar doirasiga boʻlinib ketdi. Oʻsha vaqtdagi ijtimoiy tuzum ham bolalar adabiyotiga taʼsir qilmay qolmadi, masalan, oʻsha davrda Angliyada bolalar hayotida muhim oʻrin egallagan maktablar adabiyotda ham tasvirlanib, hattoki, maktab hayotidan hikoya qiluvchi asarlar birin-ketin yozila boshladi. Bunday asarlar oʻquvchilarning maktabdagi sarguzashtlariga bagʻishlangan boʻlib, asosan,

o`g`il bolalar auditoriyasiga mo`ljallangan edi. Qizlarning esa ko`proq oilada vaqt o`tkazishlari, ularning hayotida uy-ro`zg`orning ahamiyatini hisobga olib, uy hayotidan hikoya qiluvchi asarlar qiz bolalar doirasiga mo`ljallab yozila boshlandi.

XIX asrning o`rtalariga kelib esa, hozirda bolalar adabiyotining salmoqli janrlaridan biri bo`lgan fentezi janri bolalar adabiyotiga kirib keldi. Bir yarim asr mobaynida fentezi janri ham turli o`zgarishlarga uchrab, bolalar adabiyotida uning ham subjanrlarga bo`linishi sodir bo`ldi. Shuningdek, har bir shu janrda ijod qilgan yozuvchi ushbu janrning mukammallashib borishiga o`z hissasini qo`shib bordi. XX asrning boshlarida bu janr rivojiga Tolkinning qo`shgan hissasi beqiyos bo`lsa, XX asrning oxiriga kelib, Joan Rouling “Garri Potter” asari orqali fentezi janrining hamon bolalar adabiyotining yetakchi janrlardan biri ekanini ko`rsatib berdi.

2. “Garri Potter” fentezi janrida yozilgani bilan, uni maktab hayotidan hikoya qiluvchi va sarguzasht asarlar toifasiga ham kiritisa bo`ladi. Fentezi janri talablariga ko`ra, voqealar asosan Rouling yaratgan sehrgarlar dunyosida, xususan, Hogvarts sehrgarlik va afsungarlik maktabida bo`lib o`tadi. Bu dunyoni tashkil etuvchi har bir joy, har bir narsa – u transport vositasi bo`ladimi yoki sehrgarlar kundalik hayotida ishlatiladigan buyum bo`ladimi, muallif tomonidan puxta ishlab chiqilgan. Sehrgarlar olamida oddiy odamlar foydalanadigan elektr va transport vositalarini deyarli uchratmaysiz.

3. Asarning asosiy qismini tashkil etuvchi bolalar obrazlari ham bir-biridan xilma-xil bo`lib, ularning xarakter xususiyatlari tahlil qilinganda, har birining o`ziga xos jihati boshqa qahramonlarda uchramasligiga guvoh bo`lish mumkin. Rouling yaratgan qahramonlar bir nuqtada qotib qolgan obrazlar emas, aksincha, asardagi har bir voqea, har qanday vaziyat ularning ruhiyatiga ta`sir qilib, xarakterlarining yuksalib borishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, asarning birinchi, ikkinchi kitoblarida qahramonlar nutqi sodda tilda berilgan bo`lsa, yoshlari ulg`ayishi bilan ularning nutqlari, ko`rinishlari va fe`l-atvorlari ham o`zgarib boradi. Xususan, asar boshida qobiliyati bo`lishiga qaramay, uni

qo'llashni bilmaydigan Garri asar so'ngiga kelib, kuchli sehgarga aylanadi, faqat noxushliklarga uchrab, hissiyotlariga tayanib yuradigan Ron esa aql bilan ish tutadigan, hissiyotlarini jilovlab olgan va hayotda aniq maqsadlarni o'z oldiga qo'ygan obrazga aylanadi. Bunday o'zgarishlar deyarli har bir qahramon bilan sodir bo'ladi. Rouling yaratgan salbiy bolalar obrazlari ham o'ziga xos tarzda tasvirlab boriladi, asar boshlarida ular barchaning g'azabini keltirib, kitobxonlar nafratiga duchor bo'lsa, keyinroq esa muallifning bu qahramonlarni boshqa planda tasvirlashi orqali kitobxon bunday qahramonlar xatti-harakatlari sababini tushuna boshlaydi va ularda biroz bo'lsa ham qahramonga nisbatan simpatiya uyg'ona boshlaydi. Shunday obrazlardan biri qilib Drako Malfoy qahramonini ko'rsatish mumkin.

4. Roulingning yozuvchilik mahoratini uning qahramonlar ismi tanlovi orqali ham bilib olish mumkin. Asarda har bir qahramonning ismi shunday tanlanganki, ismlarning ma'nosi o'z sohibining tabiati, xulq-atvori, uning hayot tarzi va hatto taqdiriga ham ishora qilib turadi. Bu kabi stilistik san'at adabiyotda antonomasiya deb atalib, u ham yozuvchining o'ziga xos uslubini ko'rsatadigan vosita hisoblanadi.

5. Xalq og'zaki ijodi namunalari har bir xalqning boy adabiy merosi hisoblanib, har bir davrda va har bir xalqda yozuvchilar unga tez-tez murojaat qilib turishadi. "Garri Potter" asarini ham folklor namunalari ishtirok etgan kitoblar qatoriga bimalol kiritish mumkin. Bu esa asarning badiiy qimmatini yanada oshirishga xizmat qilgan. Sababi, birinchidan, folklor namunalarning badiiy yozma adabiyotda berilishi ularning bolalar o'rtasida ham keng yoyilishiga xizmat qilsa, ikkinchidan, ular o'zida milliy koloritni aks ettirishi bilan boshqa xalq o'quvchilarida ingliz folklori haqida biroz bo'lsa ham tushuncha uyg'otadi, uchinchidan esa, bu ijod namunalarning yozuvchi tomonidan badiiy sayqallanishi ularning yangicha ko'rinish va mazmun egallashiga xizmat qilgan.

"Garri Potter", avvalo, bolalar va o'smirlar auditoriyasiga mo'ljallangan asar bo'lgani sababli, uning voqealar rivojida sarguzashtlarning asosiy o'rin

egallagani hamda bu sarguzashtlarning asosiy ishtirokchilarini bolalar tashkil etgani asar muvaffaqiyatining sabablaridan biri bo'lsa, boshqa tomondan, muallifning o'z ijodiy fantaziyasini mahorat bilan yozuvga tushirgani, har bir voqeaning ketma-ketligi va izchilligi puxta ishlab chiqilgani, muallif badiiy to'qimasi va folklorning muvaffaqiyatli uyg'unlashuviga erishilgani kitobga olamshumul mashhurlik olib kelgan boshqa sabablar hisoblanadi.

FOR AUTHOR USE ONLY

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”// Баркамол авлод—Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. — Т.:Шарқ, 1997.
2. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни.// Баркамол авлод — Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. —Т.: Шарқ, 1997.
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar mahkamasining 1992-yil 20-iyuldagi “O`zbekiston yoshlarini chet mamlakatlarga o`qishga yuborish to`g`risida”gi №334 sonli Qarori.
4. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi “Chet tillarni o`rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ-1875-sonli Qarori.

Ilmiy-badiiy adabiyotlar:

5. A Companion to the Victorian novel //ed. Brantlinger, Patrick and Thesing, William B. U.K., Blackwell Publishing Ltd., 2002. –513 p.
6. Agarwal, N., Agarwal, Ch. Friends and Foes of Harry Potter: Names Decoded. Texas World Publishing, 2005. –160 p.
7. Bilton, Ch., Cummings, S. Handbook of Management and Creativity. EdwardElgar Publishing, 2014. – 424 p.
8. Бобоев Т. Адабиётшуносликка кириш. Т.: 1980. –442 б.
9. Bobulová I., Pokrivčáková S., Preložníková E., Příbylová I. Children's and Juvenile Literature / (Written in English). Nitra : Univerzita Konštantína Filozofa, 2003. –190 p.
10. Boynazarov Fayzulla. Jahon adabiyoti. T.: “Musiqa” nashriyoti, 2006. – 159 b.
11. Будур Н.В., Иванова Э.И. и др.Зарубежная детская литература. – М.: “Академия”, 1998, –304 с.

12. Carrington, Rachel. *Baby Names Book: Getting Started on Choosing the Perfect Baby Names and Meanings*. Speedy Publishing LLC, 2012. – 72 p.
13. Darton, Harvey. *Children's Books in England: Five Centuries of Social Life*. Cambridge University Press, 2011. – 394 p.
14. Детская литература // Под ред. Зубарева Е. – М.: Просвещение, 1989. – 399 с.
15. Feldman, Roxanne. [The Truth about Harry](#). – School Library Journal, September 1999.
16. Fenske, Claudia. *Muggles, Monsters and Magicians: A Literary Analysis of the Harry Potter Series*. Frankfurt: Peter Lang Publishing, 2008. – 471 p.
17. Frazer, James. *The Golden Bough: A Study of Magic and Religion*. The Floating Press, 2009. – 1454 p.
18. Galperin, I.R. *Stylistics*. – Moscow: Vysšaja škola, 1981. – 334 p.
19. Granjer, John. *Harry Potter's Bookshelf: The Great Books Behind the Hogwarts Adventures*. – New York: Berkley Publishing Group, 2009. – 336 p.
20. Hunt, Peter. *International Companion Encyclopedia of Children's Literature – Vol.1*. – London: Routledge, 2004. – 631 p.
21. Johnstone, Anne. The hype surrounding the fourth Harry Potter book belies the fact that Joanne Rowling had some of her blackest moments writing it – and that the pressure was self-imposed a kind of magic. – The Herald. July 8, 2000.
22. Kirk, Connie Ann. [J. K. Rowling: a biography](#). – Westport, Conn: Greenwood Press, 2003. – 155 p.
23. Loer, Stephanie. [All about Harry Potter from quidditch to the future of the Sorting Hat](#). – [The Boston Globe](#). October 18, 1999.
24. Madayev O., Sobitova T. Xalq o`zaki poetik ijodi. – Toshkent, Sharq, 2010. – 208 b.
25. Nel, Philip. *J.K. Rowling's Harry Potter Novels: A Reader's Guide*. (illustrated ed.). NY: Continuum, 2001. – 96 p.

26. Parker, Ian. [Mugglemarch](#). – The New Yorker. October 1, 2012.
27. Rolling, James Haywood Jr. *Swarm Intelligence: What Nature Teaches Us About Shaping creative Leadership*. – New York: Palgrave Macmillan, 2013. – 256 p.
28. Rowling, J.K. *Harry Potter and the Philosopher's stone*. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 1997. – 224 p.
29. Rowling, J.K. *Harry Potter and the Chamber of Secrets*. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 1998. – 251 p.
30. Rowling, J.K. *Harry Potter and the Prisoner of Azkaban*. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 1999. – 317 p.
31. Rowling, J.K. *Harry Potter and the Goblet of Fire*. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 2000. – 636 p.
32. Rowling, J.K. *Harry Potter and the Order of the Phoenix*. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 2003. – 766 p.
33. Rowling, J.K. *Harry Potter and the Half-blood Prince*. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 2005. – 607 p.
34. Rowling, J.K. *Harry Potter and the Deathly Hallows*. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 2007. – 607 p.
35. [Rowling, J.K. The Fringe Benefits of Failure, and the Importance of Imagination](#). Text of J.K. Rowling's speech at the Harvard Commencement Ceremony. Harvard Gazette. June 5, 2008
36. Sandner, David. *Fantastic Literature: A Critical Reader*. – Westport, CT: Praeger Publishers, 2004. – 376 p.
37. Sandner, David. *The Fantastic Sublime: Romanticism and Transcendence in Nineteenth-Century Children's Fantasy Literature*. – New York: Greenwood Press, 1996. – 168 p.
38. Shavit, Zohar. [Poetics of Children's Literature](#). [University of Georgia Press](#), 2009. – 216 p.
39. Simpson J., Roud S. *A dictionary of English Folklore*. – New York, Oxford University Press Inc., 2010. – 411 p.

40. Wolosky, Shira. The Riddles of Harry Potter: Secret Passages and Interpretive Quests. Palgrave Macmillan, 2010. – 238 p.

Lug`atlar va ensiklopediyalar:

41. D'Amassa, Don. Encyclopedia of Fantasy and Horror Fiction. – New York: Facts on File, 2006. – 498 p.
42. Fass, Paule S.ed. Encyclopedia of Children and Childhood in History and Society. Volume 1 (A-E). New York and London: Macmillan Reference USA, 2004. – 1055 p.
43. Литературная энциклопедия. М.: гос.словарно-энцикл.изд-во “Сов.Энцикл.”, 1934.
44. Macmillan English Dictionary for Advanced Learners. New Edition. – Macmillan Publishers Limited, 2007. – 1748 p.
45. Мюллер В.К. Большой англо-русский и русско-английский словарь. Новая редакция. – Москва: «Дом Славянской культуры», 2008.– 958 с.
46. O`zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 1-jild. – T.: O`zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 2002. – 1024b.
47. Pickering, David. The Penguin Pocket Dictionary of Babies' Names. UK: Penguin, 2005. – 304 p.
48. Русча-ўзбекча луғат. –Т.: “Ўзбек Совет Энциклопедияси Бош редакцияси”, 1983.
49. The Hutchinson Encyclopedia of Literature. Helicon Publishing, Research Machines plc, 2006. – 1222 p.
50. Энциклопедический словарь английской литературы XX века. – М.: Наука, 2005. – 543 с.

Internet saytlari:

51. <http://www.accio-quote.org>
52. <http://www.britannica.com> (Britannca Online Encyclopedia)
53. <http://www.jardinepress.co.uk/books/Bshuck.html>
54. <http://www.jkrowling.com>

MUNDARIJA :

KIRISH.....	3
I BOB. XX ASR ANGLIYA ADABIYOTIDA BOLALAR VA O`SMIRLAR MAVZUSI.....	6
1.1. Angliya bolalar adabiyoti tarixi va taraqqiyoti.....	6
1.2. Ingliz bolalar adabiyotining jahon sahnasiga chiqishida J.K.Roulingning qo`shgan hissasi.....	16
I bob bo`yicha xulosalar.....	24
II BOB. “GARRI POTTER” – BUTUNJAHON BOLALARI KITOB.....	26
2.1. “Garri Potter” asarida makon va zamonning ifodalanishi.....	26
2.2. Asarda sehrgarlar obrazi talqini.....	35
II bob bo`yicha xulosa.....	51
III BOB. “GARRI POTTER” ASARIDA USLUB VA UNING ASAR RIVOJIDAGI ROLI.....	53
3.1. “Garri Potter” asarida antonomasiyalarning qo`llanilishi va ularning asardagi o`rn.....	53
3.2. Asarda xalq og`zaki ijodiga yondashuv.....	62
III bob bo`yicha xulosalar.....	70
UMUMIY XULOSA.....	71
Foydalanilgan Adabiyotlar ro`yxati.....	75

FOR AUTHOR USE ONLY

**More
Books!**



yes
I want morebooks!

Buy your books fast and straightforward online - at one of world's fastest growing online book stores! Environmentally sound due to Print-on-Demand technologies.

Buy your books online at
www.morebooks.shop

Kaufen Sie Ihre Bücher schnell und unkompliziert online – auf einer der am schnellsten wachsenden Buchhandelsplattformen weltweit! Dank Print-On-Demand umwelt- und ressourcenschonend produziert.

Bücher schneller online kaufen
www.morebooks.shop

KS OmniScriptum Publishing
Brivibas gatve 197
LV-1039 Riga, Latvia
Telefax: +371 686 204 55

info@omniscryptum.com
www.omniscryptum.com

OMNIScriptum



FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY